

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FAKULTETI
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“BOSHLANG‘ICH TA‘LIM DARSLARIDA MAQSADNI
TO‘G‘RI BELGILASH – SAMARADORLIK OMILI”**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: Boshlang‘ich ta‘lim,
sport va tarbiyaviy ish ta‘lim
yo‘nalishi 4.3.BTU-15 guruh talabasi
Hidoyeva Dilnoza Shavkat qizi

ILMIY RAHBAR: p.f.n., dotsent
G.R.Akramova

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi
_____sonli bayonnomasi “_____” _____2019 yil

Reja:

KIRISH:

- bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqot obekti;
- tadqiqod predmeti;
- tadqiqod vazifalari;
- tadqiqod metodlari;
- tadqiqotning metodologik asoslari;
- bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi;
- bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

I BOB. TA'LIM MAQSADINI BELGILASHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI

I.1. Ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslarini aniqlash muammo sifatida

I.2. Ta'lim maqsadining tarixiy taraqqiyot bosqichlari

Birinchi bob bo'yicha xulosa

II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA TA'LIM MAQSADLARI BILAN UNING MAZMUNI ORASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH METODIKASI

II.1. Boshlang'ich sinif darslarida ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni, vosita va usullari mutanosibligini ta'minlashning didaktik-psixologik asoslari

II.2. Boshlang'ich ta'lim mazmuniga muvofiq ta'lim maqsadlarini belgilash metodikasi

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

III BOB. TAJRIBA - SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI

III.1. Pedagogik tajriba – sinov maqsadi va vazifalari

III.2. Pedagogik tajriba – sinov natijalari va uning tahlili

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni (1997yil) "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997yil), O'zbekiston Respublikasini "2017-2021 yillarda rivojlantirishni beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasi", Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori, 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-sonli "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida o'sib borayotgan avlodni yangi sifat darajasida o'qitish va tarbiyalash, maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini tubdan yaxshilashni, uni jahon andozalariga mos ravishda qayta qurish, ta'limning eskirib qolgan va davr talablariga javob bermaydigan eskicha o'qitish usullaridan voz kechib, ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikka erishish talabi qo'yilganini guvohi bo'lamiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratilmoqda. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator, me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar belgilab qo'yilgan. Xususan, boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish, har bir o'quvchi jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rayotgan, uni aql chig'irig'idan o'tkazayotgan har bir masalaga o'z munosabatini bildiradigan dunyoqarashi rivojlangan fikrlash olami keng bo'lishi talab etiladi. Har bir sinf o'quvchisining individual yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'limni tashkil etish, o'quv mashg'ulotlari jarayonida ta'lim mazmuniga mos ta'lim maqsadini to'g'ri qo'ya olish o'qituvchi zimmasida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, insoniyat tarixida ta'lim olishga ehtiyoj tug'ilgan kundan boshlab, nimani o'rgatish?, qancha o'qitish?, nima uchun o'qitish?, qanday usullar bilan o'qitish kerak? kabi savollar didaktika oldida turgan qadimiy va dolzarb masalalar hisoblanadi. Shu muammolarga bog'liq holda insonning kundalik faoliyatida maqsad, mazmun, natija kabi tushunchalar tez-tez uchrab turadi.

Mantiqshunoslar nuqtai nazari bilan qaraganda maqsad – ma'lum jamiyatdagi insonlar amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi. Ba'zi adabiyotlarda qadimgi hindlar, ba'zilarida yunonlar yoki arablarga nisbat beriladigan: «Maqsad unga erishish yo'l va choralarni belgilaydi», degan hikmatli so'z ostida juda katta ma'no yotadi. Maqsad insonning biror voqelikka bo'lgan ehtyojining ongdagi in'ikosi yoki fikriy modeli bo'lib, u ob'ektiv sharoitlardan kelib chiqadi.¹ Maqsadni amalga oshirish natijaga erishish demakdir. Mazmun esa natijaga erishish jarayonining majmui, mag'zi, maqsad va uning natijasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yig'indisidir. Natija o'z navbatida jamiyat ijtimoiy talabining qanday qondirilganligini belgilovchi omildir .

Passiv amaliyot davrida boshlang'ich sinf darslarini kuzatish jarayonida ko'pchilik o'qituvchilarimiz o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim maqsadlarini belgilashda kamchiliklarga yo'l qo'yayotganlarining guvohi bo'ldik. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy rivojlantiruvchi, kompetensiyaviy maqsadlariga erishishda metodlarni qo'llashda ham kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Vaholanki har bir darsning maqsadini to'g'ri belgilab olish ta'lim sifat va saradorligiga erishishda muhim hisoblanadi. Shu kabi holatlarni kuzatish asosida "Boshlang'ich ta'lim darslarida maqsadni to'g'ri belgilash – samaradorlik omili" bitiruv - malakaviy ish mavzusini tanlab olishga asos bo'ldi. Va shu yo'nalishda o'z izlanishlarimni olib bordim.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi: Ta'lim jarayoni o'quv predmetlari maqsadining uning tarkibida tutgan o'rni, ta'lim mazmuni, usul, metod va vositalarini belgilashda hal qiluvchi omil ekanligiga qaramay, pedagogika sohasidagi ilmiy adabiyotlarda juda kam ma'lumot berilganligi, aksariyat hollarda, jumladan, Ya.A.Komenskiy, N.F.Talizina, L.M.Fridman, O.R.Roziqov, M.Maxmudov, R.Safarova, S.Yu.Og'ayev, F.M.Qosimov va boshqalarning ishlarida bu muammoni ta'lim mazmuni va metodlari bilan aralash tarzda o'rganganlar. Pedagogika, didaktika darsliklari va qo'llanmalarida ko'p hollarda ta'lim maqsadi o'z-o'zidan tushunarli hodisa sifatida

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. T.I. – M.: Rus tili, 1981. – 462 b.

alohida tahlil etilmaganligi bilan xarakterlanadi. Vaholanki, ta'lim maqsadi ta'lim tizimi tarkibida markaziy o'rinni egallaydi. Pedagog olimlarning ta'lim maqsadini tadqiq etishga kamroq e'tibor qaratganliklari bu hodisaning olimlar ixtiyoridagi omil emas, balki ijtimoiy buyurtma sifatida ko'p hollarda davlat va jamiyat tomonidan belgilanishi, tadqiqotchi va amaliyotchilarga go'yoki tashqaridan yuklatilishi bilan oqlanishi mumkindek ko'rinsa-da, bu masalani tarixiy jihatdan alohida olingan muayyan o'quv predmeti doirasida ta'lim maqsadidagi tadrijiylik va ochiqlik nuqtai nazaridan o'rganish davlat hamda jamiyat taraqqiyoti ahamiyatidagi zarur izlanish ekanligini ko'rsatadi. Davlat va jamiyat ta'lim maqsadini rasmiy ravishda belgilashda vujudga kelgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim mutasaddilari qanday chora-tadbirlarni ilgari surishlariga suyanadi. Shunga ko'ra ta'lim maqsadi muammosini har tomonlama o'rganish barcha davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Boshlang'ich ta'lim darslarida maqsadni to'g'ri belgilash orqali samaradorlikka erishish metodikasini yoritish va usuliy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqot obyekti: Boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayoni.

Tadqiqod predmeti: Boshlang'ich sinf darslarida maqsadni to'g'ri belgilash orqali samaradorlikka erishish metodikasi.

Tadqiqod vazifalari:

1. Ta'lim maqsadini belgilashning nazariy-amaliy asoslari, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganish asosida tahlil qilish, umumlashtirish.
2. Boshlang'ich sinf darslarida ta'lim maqsadlari bilan uning mazmuni orasidagi mutanosiblikni ta'minlashning pedagogik-psixologik asoslari, ta'lim mazmuniga muvofiq ta'lim maqsadlarini belgilash metodikasini yoritish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompetensiyalarni shakllantirish, rivojlantirishda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash yuzasidan bo'lajak o'qituvchilar uchun usuliy tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqod metodlari: Mavzuga oid pedagogika, psixologiya, metodika adabiyotlarini o'rganib tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa- so'rovnomalar, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, pedagogik tajriba, taqqoslash.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Talim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi, metodist psixolog, didakt olimlarning muammo yuzasidan qayd etgan qarashlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'lim tarbiyaga oid fikrlari.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi: ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilash orqali boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirishning muhim jihatlari asoslandi .

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy- amaliy ahamiyati: ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilash orqali boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirish nazariy jihatdan asoslanildi.

Ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilash orqali boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirish yuzasidan bo'lajak o'qituvchilar uchun usuliy tavsiyalar tayyorlandi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi: kirish, 3 bob, 6 band, xulosa qismlardan iborat bo'lib, unda ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilash orqali boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirishning muhim jihatlari yoritiladi.

I BOB
TA'LIM MAQSADINI BELGILASHNING NAZARIY-AMALIY
ASOSLARI

I.1. Ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslarini aniqlash
muammo sifatida

Pedagogik adabiyotlarda «ta'lim», «ta'lim mazmuni», «ta'lim maqsadi» tushunchalari turlicha talqin qilinadi: «Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi». Shuningdek, kishilik jamiyatida ta'lim mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida o'qituvchi va o'quvchi zimmasiga yuklangan o'qitish, o'qish, rivojlantirish jarayoni bilan belgilanuvchi vazifadir. Bu tor ma'noda ta'limning o'qitish tushunchasini anglatishini ifodalaydi. Keng ma'noda ta'lim jamiyatning barcha sohalarida ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

O'qituvchi faoliyati tufayli ta'lim jamiyat tomonidan puxta o'ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida amalga oshiradigan jarayonga aylanib, jamiyat kutgan natijalarni beradi. Ma'lumki, ta'lim inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, bilimlarni o'zlashtirish natijasida tafakkur rivojlanishini tezlashtiradi.

Barcha zamonlarda ham ta'limning maqsadini belgilash davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblangan. Ta'limning maqsadi jamiyat amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadi jamiyatning maktab oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasiga ko'ra belgilanadi.

Ta'limning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzumga muvofiq fan, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy hayot taraqqiyoti asosida tarixan o'zgarib borishi bilan birga umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning didaktik tavsifini ham belgilaydi. Ta'limning maqsadi o'qitishning ma'lum maqsadga qaratilganligi va unga muvofiq kelishini o'zida aks ettirgan, ta'limning ijtimoiy xususiyati, jamiyat hayotidagi ahamiyatini ochib beradigan, uning yo'nalishi, mazmuni, shakl va usullarini belgilab beradigan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Ta'lim maqsadida «Inson qanday bo'lishi kerak?», «Unga (shaxsga) qanday ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun ta'lim berish kerak?» degan talablar ifodalangan bo'ladi. Ta'lim jarayonida uning maqsadini belgilovchi jamiyat talablari to'la holda aks etsagina, o'quvchi shaxsi har tomonlama kamol topishi mumkin. Ta'lim maqsadi o'zining ijtimoiy tabiatiga ko'ra ko'p qirrali bo'lib, u o'quv jarayoni amaliyotiga tatbiq etilgach, ya'ni kutilgan natijaga erishilgandan keyin shu asosda yangi maqsadlar qo'yiladi. Ular esa ta'limning dastlabki maqsadini takomillashtirishga xizmat qiladi. Dastlab tanlangan ta'lim maqsadi, ularni amalga oshirish vositasiga aylanadi. Chunki umumiy o'rta ta'lim jarayonining o'zi ta'lim maqsadini jamiyat taraqqiyoti talablari asosida uzluksiz muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Ta'lim maqsadi o'quv-biluv jarayoni, uning mohiyati, mazmuni, usul va vositalari, o'qituvchi - o'quvchi munosabatlari, bu tizimning samaradorligi qanday shaxs yoki mutaxassisni shakllantirishni belgilaydi. Ta'lim maqsadining ijtimoiy buyurtma asosida ifodalanishi shaxs, davlat, jamiyat, fan-texnika hamda ishlab chiqarishning umumiy taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Demak ta'lim maqsadi jamiyat ehtiyojlarini ifodalaydi va uning taraqqiyotini belgilaydi. Butun ta'lim jarayoni – o'quv materialidan boshlab, ta'lim natijasigacha ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ta'lim maqsadi oldida turgan asosiy masala bugungi kun va istiqbolda jamiyat ravnaqi uchun qanday shaxs, mutaxassis tayyorlash kerakligi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, ta'lim jarayonida belgilangan muayyan talablarga mos shaxs shakllantirilishi lozim. Ta'lim maqsadi ta'limning mohiyatini belgilar ekan, u barcha zamonlarda ham pedagog va metodist olimlar diqqat markazidagi masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta'lim maqsadi muammosining ilmiy talqiniga juda kam o'rin ajratilgan. Buni mutaxassislar ham o'z vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Buning ob'ektiv sabablari ham bor. Birinchidan, yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim maqsadi ta'lim mazmuni, usuli, butun jarayoni va natajasini belgilovchi omil bo'lganligi uchun ta'limning istalgan muammosi tadqiqu tavsifida, muhokamayu munozarasida ta'lim maqsadi masalasi muhokama etiladi. Shuning uchun uni maxsus o'rganishga zarurat yo'qdek tuyuladi.

Ikkinchidan, ta'limning maqsadi – ijtimoiy buyurtma va juda ko'p hollarda davlat siyosati, jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq masala bo'lganligi uchun u yaxlit tarzda didakt olimlar hal qiladigan sof pedagogik muammo emas, balki ijtimoiy-didaktik masala bo'lib, u davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy, demografik, pedagogik-psixologik talablarga tayangan holda belgilab beriladi. Didakt olimlar mana shu talabni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashlari lozim. Jamiyat taraqqiyotning ma'lum nuqtasiga ko'tarilgach, ta'lim maqsadi yangilanishi va oldingi maqsaddan yuqoriroqlarini o'z oldiga qo'yishi lozim.

Ta'lim maqsadini belgilash davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-pedagogik masala bo'lganligi uchun ham u davlat va jamiyatning ta'lim to'g'risidagi siyosatidan kelib chiqqan holda belgilab beriladi.

O'zbek modelining muhim tarkibiy qismlaridan biri O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va uni hayotga tatbiq qilish uchun ishlab chiqilgan hamda amalga joriy etilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dir. Ushbu me'yoriy hujjatlar bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim maqsadi va uning mazmunini belgilab beruvchi asosiy hujjatlardir.

Ta'lim maqsadi davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi asosida belgilab berilishi tufayli bu muammo, yuqorida ta'kidlaganimizdek, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda maxsus tahlil etilmagan. Ta'lim, uning muayyan bosqichlarida o'qitiladigan o'quv predmetlarining maqsadi o'quv-biluv jarayonining mazmunini belgilaydi. Dastlab ta'lim jarayoni, uning mazmuni haqidagi yondashuvlar tahliliga to'xtalamiz. Ayrim didakt-olimlar I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, N.V.Savin va boshqalar ta'lim maqsadi ikki sub'ekt – ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatini ta'lim jarayoniga kiritadi, deb hisoblaydilar. Ikkinchi guruh olimlar esa S.P.Baranov, V.A.Slastenin, R.Safarova, U.Musayev, O.R.Roziqov va boshqalar ta'lim jarayonini «ikki sub'ekt faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvidan shakllanadigan hosila» deb qaraydilar. Nazarimizda, ta'lim maqsadini ta'lim jarayoniga o'rgatuvchi va o'rganuvchini kirituvchi vosita sifatida qarash ta'lim haqidagi umumiy mantiqqa hamohangdir. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va

o'quvchi faoliyati mujassamlashuvida ta'limning maqsadi aniq va ravshan tushunilmaganligi sezilsa, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari cheklanadi. Ta'lim jarayoniga noto'g'ri yondashish natijasida esa o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy maqsadga erishib bo'lmaydi. Ta'limning aniq belgilab berilgan maqsadi esa o'quv-biluv jarayonida jamiyat talablarini qondira oladigan shaxsni «loyihalash» imkonini beradi. Shunday ekan, ta'limning maqsadi aniq anglanmagan yoki hisobga olinmagan holda o'quv jarayonida ko'zda tutilgan natijaga erishish mumkin emas.

Ta'limning umumiy maqsad va vazifalari, avvalo, unga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadi. Ta'lim oldiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtmaga ko'ra aniqlangan ta'lim maqsadi asosida esa har bir o'quv predmetining xususiy maqsad va vazifalari belgilanadi. Jumladan, «ona tili ta'limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim» yoki «maktabda adabiyot o'qitishning bosh maqsadi sog'lom e'tiqodli, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlariga mas'ul bo'la oladigan komil shaxsning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir» va h.. Bularning barchasi umumiy o'rta ta'lim oldiga qo'yilgan asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Ta'lim-tarbiyaning maqsadi yagona bo'lib, o'zaro uyg'unlik kasb etadi. Bu bog'liqlik jamiyat talablariga muvofiq tarzda unda yashaydigan kishilar orasidagi munosabatlarning tavsifi bilan aniqlanadi. Ta'limning umumiy maqsadini belgilashda shaxsni tarbiyalash, ayniqsa, ma'naviy-mafkuraviy, axloqiy, estetik, ekologik tarbiya bilan aloqadorligi ta'minlanishi, shu asosda ta'lim-tarbiya maqsadi o'quvchini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilmog'i lozim. Shuning uchun ham ta'limning umumiy maqsadi o'quvchilarda faqat mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishnigina emas, balki ta'lim oluvchi shaxsni har tomonlama yetuk qilib shakllantirishga xizmat qilish imkoniyatlarini belgilab

berishdek ulkan vazifani ham qamrab oladi. Shaxs tarbiyasining juda ko‘p vazifalari ta’lim jarayonida yechiladi. Ta’limning umumiy maqsadini natijaga aylantirish uchun, ya’ni o‘quv muassasalarida har bir o‘quvchi shaxsini ma’naviy, mafkuraviy, estetik jihatdan shakllantirish uchun ta’lim maqsadiga mos tarzda ta’lim mazmunini tanlash lozim. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi barcha faoliyat o‘zida ta’lim maqsadining muayyan qirrasini voqelantirishi lozim. Ta’lim maqsadi o‘quvchining yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda rivojlanish darajasining u yoki bu bosqichida ta’lim natijasiga erishish imkonini beradigan o‘quv vositalari tanlanishini talab qiladi. Bu vositalar ta’lim mazmuni negizida belgilab beriladi. Ta’lim maqsadi jamiyat taraqqiyoti, ehtiyojlari va imkoniyatlari asosida ta’lim oluvchi, jamiyat hayoti uchun zarur bo‘lgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan, ikki sub’ekt – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi ijtimoiy-pedagogik omildir. Shu bilan bir qatorda ta’lim maqsadi ta’lim mazmuni, o‘quv materiallari, vositalari va uning samaradorligini belgilaydi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

1.1. 1-chizma

Ijtimoiy buyurtma

(Jamiyatning o‘quvchi shaxsiga, bo‘lajak mutaxassisga qo‘yadigan ruhiy, axloqiy, ijtimoiy, kasbiy, jismoniy talablari)



Ta’lim-tarbiyaning maqsadi

(Ta’lim natijasida qanday shaxsni/mutaxassisni tayyorlash lozim)



Ta’lim mazmuni

(Mazkur shaxsga/mutaxassisga qanday bilim berish, unda qancha va qanday hajmda zaruriy ko‘nikma hamda malaka hosil qilish bilan belgilanadi)



O‘quv materiali

(Ta’lim mazmunida nazarda tutilgan bilimlarni taqdim etish, ko‘nikma va malakalar hosil qilish uchun o‘quvchining yoshi, saviyasi, ehtiyojlariga muvofiq ravishda tanlangan darslik materiallari, ta’limiy topshiriqlar va b.)



O‘qitish metodlari

(Ta’lim jarayonida o‘quv materiallarini o‘quvchiga o‘qituvchi tomonidan qulay yetkazilishiga, ijodkor shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladigan barcha yo‘l va usullar)



Ta’lim vositalari

(O‘qituvchi hamda o‘quvchi ta’lim jarayonida foydalanadigan, uning mazmunini o‘zida ifodalagan o‘quv-metodik adabiyotlar, ko‘rgazmali, texnik, audio, video vositalar, axborot banklari)




O‘quv-biluv jarayonining natijasi

(O‘quvchida ijtimoiy buyurtma talab qilgan darajada o‘zlashtirilgan bilimlar natijasida hosil qilingan ko‘nikma, malakalar hamda shaxsiy sifatlarning muayyan darajasi)


Ta’lim maqsadini to‘g‘ri belgilash natijasida shaxs, davlat va jamiyat, fan, texnika, texnologiyalar hamda ishlab chiqarishni samarali rivojlantirish uchun ijtimoiy resurs, imkoniyat vujudga keladi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da to‘g‘ri belgilanganidek, *shaxs, davlat va jamiyat, fan, texnika, texnologiyalar hamda ishlab chiqarish* munosabatlari ikki tomonlama ahamiyatga egadir: jamiyat, fan, texnika, texnologiyalar, ishlab chiqarish o‘zining istiqboldagi taraqqiyoti uchun qanday mutaxassis zarurligini belgilasa, shaxs esa fan, texnika, texnologiyalar hamda

ishlab chiqarishning samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham davlat, jamiyat, fan, texnika hamda ishlab chiqarish ilm-fan va kasb-hunar egalarining sara vakillariga har doim kuchli ehtiyoj sezadi. Mana shu ehtiyoj ijtimoiy buyurtmaning asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham shaxs «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»da markaziy o'rinda turadi.

1.1. 2-chizma




Shaxs nafaqat ishlab chiqarish, davlat va jamiyat, fan va ta'lim markazida turadi, balki ularning o'zaro munosabatlarini ham, ravnaqu taraqqiyotlarini ham belgilaydi. Shaxsni yetishtirish esa ta'lim-tarbiya maqsadi bilan belgilanadi. Demak, ta'lim maqsadining pirovard natijasi jamiyat qanday shaxsni talab qilishidadir. Ta'lim tizimidagi har bir o'quv predmeti, o'quvchining o'quv-biluv faoliyati, ta'limiy topshiriqlar mana shu maqsadga qaratilmog'i kerak. Har bir o'quv predmetining mazmuni shu maqsadning u yoki bu qirrasini ifodalashi, o'quv fanining xususiy maqsadi ta'limning umumiy maqsadiga uyg'un tarzda ifodalanishi, shuningdek, muayyan o'quv fani bo'yicha belgilab beriladigan ta'lim mazmuni, o'quv materiallari, o'qitish metodlari, o'qitish vositalari shu maqsadga muvofiq kelishi zarur. Shu o'rinda ta'limning umumiy bosh maqsadini ikki qismga ajratish mumkin. Birinchi qism:



Ijtimoiy talab davlat va jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bunda ta'lim maqsadi davlat tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topadi. Boshlang'ich ta'limni (I-IV sinflar) qamrab oladi hamda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim, o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi".

Ta'lim maqsadi bosqichlarining ikkinchi qismini quyidagi pog'onalarda berish mumkin:



Ushbu tizimdan ko'rinib turibdiki, o'quv predmeti yoki muayyan darsning maqsadi ta'limning umumiy maqsadidan kelib chiqadigan didaktik hodisadir. Agar ta'limning umumiy maqsadi me'yoriy hujjatlar, ya'ni «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Davlat ta'lim standartlari, o'quv

dasturlarida o'z ifodasini topgan bo'lsa, ta'limning xususiy maqsadi muayyan o'quv predmetlari bo'yicha belgilab berilgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida o'z ifodasini topgan. Har bir o'quv predmeti bo'yicha tuzilgan o'quv dasturida mazkur o'quv predmetini o'qitishdan ko'zlangan ta'limiy hamda tarbiyaviy maqsadlar belgilab beriladi. Bu maqsadlar o'zaro differensiallashtirilib, muayyan o'quv predmeti bo'limlari va mavzularini o'qitishdan nazarda tutilgan maqsad tarzida ifodalanadi. Ta'lim jarayonida har bir darsning maqsadi alohida belgilab qo'yiladi. Ta'lim berishda maqsadlarning oydinligi va to'liq ifodalanganligi alohida ahamiyatga egadir. Shu sababli mutaxassis va amaliyotchilar oldida muayyan o'quv predmetining bo'limlari maqsadini ma'lum mavzular va aniq dars soatlarida ifodalanishini ta'minlash vazifasi turadi.

1.1.3 – chizma

TA'LIM MAQSADI VA UNIBYELGILOVCHILAR

Davlat hujjatlari (qonunlar)	Ta'limning umumiy maqsadi
	Ta'lim turlari va bosqichlari maqsadi
DTS	O'quv predmeti maqsadi
	O'quv predmeti bo'limlari maqsadi
	O'quv predmeti bosqichlari maqsadi
O'qituvchi-metodist	O'quv predmetining yillik maqsadi
	O'quv predmetining choraklik maqsadi
	O'quv predmetining muayyan mavzu bo'yicha maqsadi

Shuning uchun ta'lim maqsadi masalasi pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunidan ayri holda tadqiq etilmaydi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ta'lim maqsadi bir tomondan ijtimoiy-siyosiy, ikkinchi tomondan didaktik hodisa bo'lganligi uchun ham uni alohida didaktik birlik sifatida tadqiq etish zaruriyati mavjuddir.

I.2. Ta'lim maqsadining tarixiy taraqqiyot bosqichlari

Jamiyat hayoti hamisha taraqqiy etib, rivojlanib boradi. Uning xilma-xil rivojlanish imkoniyatlari ta'lim jarayoni oldiga turli davrlarda turlicha maqsadlar qo'yadi. Bu maqsadlar ifodalanishi va amalga oshishi o'qitishning turli usul va vositalari qo'llanilishini talab qiladi. Shuning uchun ham ta'limning jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi maqsadini to'la amalga oshirish, buning uchun zarur bo'ladigan usul va vositalarni belgilab berish didaktikaning dolzarb masalalaridandir. Ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan usul va vositalarni tanlashda ta'lim maqsadlarining rivojlanish tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bunday izlanishning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Bugungi kunning muayyan holatini anglash, istiqbolni belgilash, mazkur muammoning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishning zarurligi.

2. Ta'lim maqsadining rivojlanish bosqichlari didaktika tarixida umuman o'rganilmagan masalalardandir. Ta'lim maqsadlarining rivojlanish tarixini o'rganish o'zbek xalqi ma'naviyati va tarixiga yangicha munosabat shakllanayotgan hozirgi davrda alohida ilmiy-amaliy qimmatga ega ekanligi.

Shuning uchun ta'lim maqsadi va uning ifodalanishiga bag'ishlangan qarashlarimizni izchil tizimli tahlil qilishga qaror qildik. Ta'lim maqsadlari rivojlanish tarixining o'rganilmaganligi, bu sohada pedagoglarda yetarlicha tasavvur shakllanmaganligiga asos bo'lmoqda. Ma'lumki, ta'lim maqsadi ta'lim mazmuni, o'quv vositalari, usul va metodlarida o'z ifodasini topadi. Ta'lim vositalarining asosiy shakllari o'quv dasturlari, darslik va o'quv-metodik adabiyotlardir. O'zbek xalqi o'quv vositalarini yaratish sohasida juda katta tarixiy tajribaga ega. O'quv vositalari namunalari asosida mazkur vositalar yaratilgan

davrda ta'lim oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma, maqsad va vazifalarni aniqlashga erishiladi. O'zbek xalqining yozma yodgorliklari asosiy tarixiy manba bo'lganligi tufayli ular orqali tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ta'lim maqsadi, unga mutanosib bo'lgan mazmun, shakl va vositalar qanday bo'lganligi haqida aniq ilmiy tasavvur hosil qilishga muvaffaq bo'lamiz. Bundan tashqari didaktik manbalar, badiiy hamda ilmiy adabiyotlarda oz bo'lsa-da, muayyan davrda amalda bo'lgan maktablar tavsifi (ba'zan bevosita, ba'zan bilvosita) bayon qilingandir. Bu tavsiflar o'z davrida ta'lim maqsadi qanday bo'lgani haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muayyan davrdagi ta'lim maqsadi o'sha davrda jamiyatning ehtiyoj va talablaridan kelib chiqqan holda belgilab berilgandir. Shuning uchun ham har bir tarixiy sharoitda mazkur davr uchun ustuvor bo'lgan masalalar, ehtiyojlar ta'lim maqsadini belgilashi ayni haqiqat ekanligini e'tiborda tutish lozim. Ta'lim maqsadi, uning ifodalanishi, mazkur maqsadga mutanosib bo'lgan mazmun, shakl, usul va metodlar didaktik invariant hisoblanadi. Shunga ko'ra kuzatishlarimiz ta'lim maqsadi tarixiy hodisa, tarixiy sharoit bilan bog'liq tarzda o'rganilishi va baholanishi lozimligini ko'rsatadi. Masalan, IX-XII asrlarga xos ta'lim maqsadini tahlil qilganda mazkur masalaga ayni shu davr talablari va ehtiyojlari nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqining butun hayoti davomida ta'limda shaxsning odob-axloqini muntazam rivojlantirib borish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Natijada ta'lim jarayonida o'quvchilar muntazam ravishda xalqimizning urf-odatlarini, madaniyati, tarixi, til boyliklari, jamiyat talablariga mos odob-axloq me'yorlarini o'zlashtirib boradilar. Ayni zamonda bu holat barcha davrlar uchun umumiy bo'lib, ta'limning asosiy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat ekanligini belgilab bergan. Bundan tashqari ta'limning azaliy maqsadidan biri o'quvchining ona tilida fikrlashi va o'z fikrini ona tilida bayon etish ko'nikmalarini egallashiga erishishdan iboratdir.

Dastlab uzoq asrlar davomida amalga oshirilgan ta'lim tarixi hamda ta'lim maqsadining rivojlanish dinamikasi haqida ona (o'zbek) tilida ta'lim misolida fikr yuritamiz.

IX-XIX asrlarda, asosan, turkiy, turkcha, qator manbalarda hoqoniy, qoshg'ariy, chig'atoy kabi o'ndan ortiq nomlar bilan atalib kelingan ona tilimizning o'qitilishi to'g'risida bevosita ma'lumot beruvchi manbalar bo'lmasa-da, bu tilning ta'lim-tarbiya tizimida muhim tarkibiy qismi bo'lib kelganligi, demak, ta'lim o'choqlarida o'qitilganligi haqida bilvosita ma'lumot beradigan, ona tili ta'limi orqali keng ko'lamli ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshirilganligini isbotlovchi vositalar anchagina. Ulardan eng qadimiylari, shubhasiz, ilk turkiy yozma yodgorliklardir.

Ma'lumki, ilk namunalari VI asrga, kattagina qismi esa VIII asrga mansub bo'lgan turk-runik (O'rxun Enasoy) yodgorliklari shunday bir turkiy yozuvida yozilganki, bu yozuvni olimlar XIX asrning oxirigacha mutlaqo o'qiy olmaganlar. Bu yozuvlar 1893 yilda daniyalik olim V.Tomsen tomonidan o'qildi. Muhimi, runiy yozuvidagi yodgorliklar katta hududga tarqalgan bo'lib, bu yozuvlar ulug' hoqonlar hamda ularning qarindoshlari qabri ustiga qo'yilgan toshlar, toshtayoqlar va qoyalarda saqlangan. Mazkur yozma yodgorliklar mutaxassislarning fikricha, qadimgilari eramizning V asriga mansub bo'lsa, keyingilari eramizning IX-X asrlariga oiddir. Demak, runiy yozuv 500 yil amalda bo'lgan, bu esa bizni sof turkiy yozuv, turkiy til ta'lim o'choqlarida o'qitilgan, o'rgatilgan degan xulosaga olib keladi.

Bitiktoshlarning keng xalq ommasi bemalol ko'ra oladigan ochiq joylarga qo'yilishi savodxonlikka o'rgatish qator mamlakatlarda bo'lgani kabi sanoqli kohinlaru din o'choqlari bilan chegaralanmaganligidan dalolat beradi. Yevropadagi qadimgi yodgorliklar monastirlaru grek butxonalarida mujassamlangan bo'lsa, turkiy yodgorliklar yuz minglab turkiylar o'tadigan katta chorrahalarda, sahrolarda o'rnatilgan. Qadimgi turkiy yodgorliklarning V.Tomsen, V.V.Radlov, P.M.Melioranskiy, S.Ye.Malov, H.N.Orqun, G.Ramstedt, A.N.Kononov kabi tadqiqotchilari yodgorliklarda xalqqa murojaat qilingan quyidagi so'zlarni alohida

ajratadilar: «Turk beklari, xalqi, buni eshiting! Turk xalqini to‘plab davlat tutishni bu yerda [toshga o‘yib] yozdim. Adashib ayrilganingni ham bu yerda yozdim. Qanday nima so‘zim bo‘lsa, mangu toshga o‘ydim. Unga qarab biling, Turkning endigi xalqi, beklari. Uy, dunyoga[gina] qaraydigan (ko‘ziga faqat mol-mulki ko‘rinadigan) beklar sizlar gumrohsizlar.

Men mangu tosh ... Tabg‘ach hoqonidan naqqosh keltirdim, naqshla(t)dim. Mening nutqimni buzmedi. Shunday sayrgoh yerda mangu tosh o‘rnatdim, (bitig) bitidim. Uni ko‘rib shunday deb biling: bu bitig bitilguchining birodari Yo‘llug‘ tegin». Demak, yodgorliklardagi yozuvlarni xalq o‘qigan, yozuvlarni o‘qiy olgan xalq savodli bo‘lgan. Xalqning savodli bo‘lishi uchun ularni ham o‘qitganlar. Ya‘ni xalqning savodxonligi va dunyoqarashini rivojlantirish uchun ularga ta‘lim-tarbiya berilgan. O‘sha davrdagi maktab qanday bo‘lganligi, o‘qitish qayyo‘sinda amalga oshirilganligi bizga ma‘lum emas. Biroq turkiy maktablar, ta‘lim o‘choqlarida o‘qitish turkona ekanligi, uning boshqa xalqlarning ta‘lim tizimidan farq qilishi ham runiy yodgorliklarda o‘z aksini topgan. Bu «Kul tigin» yodgorligidagi «... oltin, kumush, ichkilik ipakni shuncha hisobsiz berayotgan Tabg‘ach xalqi so‘zi shirin, debosi (ipak kiyimlik va kiyim) nafis ekan. Shirin so‘zi, debosi bilan aldab yiroq xalqni shu xilda yaqinlashtirar ekan. Yaqin qo‘shni bo‘lgandan so‘ng yo v u z i l m n i u yerda o‘rganar ekan» degan so‘zlardan anglashiladiki, turkona bo‘lmagan bilim yo v u z i l m deb baholangan. Demak ezgu deb sanaladigan t u r k o n a b i l i m ham bo‘lgan. Buni Tunyuquq (Xitoyda tarbiyalangani uchun xitoycha Yuanchjyen nomi bilan mashhur) yodgorligi ham tasdiqlaydi. Bu yodgorlikdagi: «Bilga Tunyuquq man o‘zim. Tabg‘ach davlatida tarbiyalandim» (Tabg‘ach – shimoliy Xitoy (Mochin) degan fikri turkiy ta‘lim-tarbiya tizimi boshqalardan, jumladan, mochinliklardan farq qilganligini ko‘rsatib turadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimgi turkiy yozma yodgorliklar yaratilgan davrda – V-IX asrlarda turkiy yozuv bo‘lgan, bu yodgorliklarni xalq o‘qiy olgan, ya‘ni xalqning savodxonligi ta‘minlangan. Bunga erishish uchun muayyan ta‘lim tizimi mavjud bo‘lganligi haqida ham xulosa chiqarish mumkin. Mazkur ta‘lim jarayoni o‘z oldiga turk hoqonligi tasarrufida

bo'lgan yoshlarning savodxonligi, axloq-odobini rivojlantirish maqsadini ilgari surganligi ham ilmiy dalillardan ayon bo'lmoqda. Turkiy ta'lim-tarbiya tizimi ham o'ziga xos bo'lgan. Buni yozma yodgorliklarda bitilgan bitiklar mazmunidan anglash mumkin. Bundan tashqari yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan tadqiqotchilar bu yodgorliklar bizga yetib kelguncha uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan degan fikrni ilgari suradilar. Jumladan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik A.N. Kononov shunday yozadi: «O'zining morfologiyasi va sintaksisi yuksak darajada rivojanganligi bilan qadimgi turkiy yodgorliklarning tili bizga yetib kelguncha uzoq adabiy an'anaga ega bo'lganligidan dalolat beradi». Demak turkiy tilda ta'lim berishga asoslangan o'qitish tizimi uzoq tarixga ega. Shuning uchun ham mazkur ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlar davr talablari bilan bog'liq tarzda muntazam rivojlanib, takomillashib borgan.

XI asrda yashab o'tgan buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy IX-XI asrlarda turkiy yozuv nomi bilan mashhur bo'lgan qadimgi uyg'ur yozuvini sharhlab bo'lgach, turkiy xalqlar yozuvlari haqida quyidagi fikrni ilova qiladi: «Uyg'urlarning ham, chinliklarning ham yana boshqa bir yozuvi bor. Kitoblarni, idora ishlarini u xat bilan yuritadilar. Chinliklar va musulmon bo'lmaganlardan boshqalar u xatni o'qiy olmaydilar». Bu kabi so'zlar X va undan oldingi asrlarda turkiy tilda ta'lim beradigan maktablar bo'lganligini aniq ko'rsatib beradi. X asrdan oldingi va keyingi davrlarda ham turkiy tilda ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilganligi haqida tarixiy manbalarda bilvosita ma'lumotlar yetarlicha keltirilgan.

Ma'lumki, VII-VIII asrlarda Markaziy Osiyoda islom dini yoyila boshladi. Kattagina mintaqada, xususan, zardushtiylik (otashparastlik) mafkurasi hukmron bo'lgan yerlarda islomning o'rnashishi qiyin kechdi, lekin muarrixlarning, xususan, buyuk tarixchi va islomshunos V.V.Bartold fikriga ko'ra, turkiy xalqlar islomni zudlik bilan qabul qildilar, chunki o'sha davrda butun turkiyzabon o'lkada ma'lum bir yagona g'oyaviy e'tiqod tarkib topib ulgurmagan edi. Turkiy xalqlar ichida xilma-xil e'tiqodlar (zardushtiylik, buddaviylik, moniylik, konfutsiylik va boshqalar) tarqalgan edi. Turkiylarning birdan islom atrofida birlashishi esa

ularning harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy birlashishiga keng imkoniyat yaratdi. Shuning uchun V.V.Bartold ham Markaziy Osiyo davlatlarida islom dinining mustahkamlanishida «arab va eroniy xalqlardan ko'ra turkiy xalqlarning hissasi salmoqliroq» degan fikrni ilgari suradi. Islomiy mafkura, ta'lim va tarbiya tizimi turkiy xalqlar tomonidan osonlikcha qabul qilindi. Qishloq va shaharlarda musulmonlar masjidlar qurdirib, u yerda farzandlari uchun diniy maktablar tashkil qildilar. Musulmon qizlari islom dini taomiliga ko'ra, otinoyilar tomonidan xonadonlarda o'qitilgan. Bu davrga kelib ta'limning asosiy maqsadi islom dini va mafkurasini ommalashtirish, yoshlar ongiga singdirish, ularning savodxonligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, bilim oluvchilar ongida islom axloq-odobi me'yorlarini qaror toptirishdan iborat edi. Ushbu davrda maktab hamda madrasalarda tolibi ilmlarga adabiy badiiy asarlar bilan bir qatorda xandasa, mantiq, riyoziyot, falakiyot, ilmi hadis ham o'qitilgan. Bolalarning savodini chiqarish esa haftiyakni o'rgatishdan boshlangan. Tabiiyki, turkiyzabon xalqlarning farzandlariga ta'lim-tarbiya o'z ona tillarida berilishi zarur edi. Bu davrga (VIII-IX asrlarga) mansub ilk islomiy yodgorliklar hozirgi O'zbekistonning markaziy va shimoliy-g'arbiy mintaqalarida yaratilgan bo'lib, ular bizgacha yetib kelmagan. Biz o'sha davr ta'lim vositalari (darslik va qo'llanmalar) haqida bugungi kunga qadar to'liq tasavvurga ega emasmiz. Lekin qoraxoniylar davlatida (IX-XII asrlarda) davlat (saroy) tili turkiy bo'lganligi, uning adabiy mavqega ega ekanligi (ta'lim o'choqlarida o'qitilishi va me'yorlarning singdirilishi) haqida turkiyshunos – qomusiy olim M.Qoshg'ariy aniq ma'lumotlar beradi. Mahmud Qoshg'ariy ma'lumotlarini «Qutadg'u bilig» matni bilan qiyoslash esa, M. Qoshg'ariy tasvirlagan hoqoniy (qoraxoniy) turkiy bilan bu asar matni bir xil me'yorda yozilganligini ko'rsatadi.

Bularning barchasi o'sha davrda ta'lim o'zbek adabiy tilida amalga oshirilganligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Vaholanki, Markaziy Osiyoda qadimiy ilmiy an'analar, ayni zamonda ilg'or mamlakatlarni o'zida birlashtirgan islomiy madaniyat va fan rivojlangan. Markaziy Osiyo butun dunyoga mashhur bo'lgan Imom al-Buxoriy, imom Hafzi Kabir, Muso Termiziy,

Iso Termiziy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Fargʻoniy, Abu Mansur Motrudiy kabi oʻnlab siymolarni yetishtirgan. Tabiiyki, rivojlangan taʼlim tizimisiz bunday yutuqlarga erishish mumkin emas.

Oʻsha davrda maktablarda qanday taʼlim vositalari qoʻllanilgan? Manbalardan ayonki, Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig» asari maktablarda darslik sifatida oʻqitilgan. Demak, maktab va madrasalarda, asosan, pand-nasihat janridagi axloqiy taʼlim-tarbiya beruvchi, mantiqiy fikrlashga undovchi asarlar asosiy taʼlim vositasi sifatida oʻqitilgan. Maʼlumki, oʻsha davrda (IX-XI asrlar) arab tili turkiy tilni siqib chiqara boshlaganligi, ayniqsa, ilmiy adabiyotlarda koʻproq sezila boshladi. Bu tabiiy hol edi, albatta. Tarixiy sharoit jamiyat hayotida arab tili va madaniyatining keng yoyilishi mazkur til imkoniyatlaridan ham foydalanishga ehtiyoj tugʻdirgan edi. Biroq shunga qaramay, turkiy til IX-XI asrlarda batamom siqib chiqarilmagan. Buning eng asosiy dalili Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshgʻariy va uning bizgacha yetib kelgan yagona asari «Devonu lugʻotit turk»dir. Bu asarda Mahmud Qoshgʻariy: «... arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, oʻzib borayotgan turkiy til» imkoniyatlari jihatidan arab tilidan qolishmasligi, koʻp jihatlardan «poygada oʻzib borayotgan»dek undan ustun turishini koʻrsatadi. Shuning uchun u turkiy tilni arablar tomonidan ham oʻrganilishini targʻib etadi. Arablar turkiy tilni oʻrganishga daʼvat etilar ekan, turkiylarning oʻzlari maktablarda oʻz tillarini oʻrganmaganlar, turkiy tilda taʼlim boʻlmagan degan fikrlar notoʻgʻridir. Mahmud Qoshgʻariy oʻz asarida turkiy tillarni oʻrganishga daʼvat etuvchi ikki hadisni keltiradi. Ulardan birida shunday deyiladi: «... Turk tilini oʻrganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi». Hadisni sharhlab muallif yozadi: «Hadisning toʻgʻri yoki toʻgʻri emasligining javobgarligi aytgan kishining gardaniga. Agar toʻgʻri boʻlsa, turk tilini oʻrganish vojib (zarur)dir: hadis toʻgʻri boʻlmagan taqdirda ham uni oʻrganish zarurligini aql taqozo etadi».

Tarixchilarning taʼkidlashlaricha, X-XII asrlarda turkiylarning nufuzi islom xalifaligida juda baland edi. M. Qoshgʻariy maʼlumotlari asosida biz bemalol taʼkidlay olamizki, X-XI asrlarda maktab va madrasalarda islomiy mafkura ustuvor boʻlgan turkiy tildagi taʼlim-tarbiya amalda boʻlgan.

XIII asrda Markaziy Osiyoning mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi yuksak madaniyatga ega bo'lgan xalq ma'naviy hayotiga ancha putur yetkazdi. Ko'chmanchi mo'g'ullarning turkiy, qadimgi uyg'ur yozuvini mo'g'ul rasmiy yozuvi sifatida qabul qilganligi (bu yozuv Mo'g'ulistonda XX asrning boshlarigacha eski mo'g'ul yozuvi nomi bilan amalda bo'lgan) mahalliy turkiy xalqlar savodxonlik saviyasi bosqinchi mo'g'ullardan ancha yuksak darajada bo'lganligidan dalolat beradi. Mo'g'ullarning islom dinida bo'la turib, turkiy yozuvni qabul qilishi mazkur yozuvning ushbu hududda xalqchil, ommaviy ekanligini ko'rsatadi. O'sha davrdagi ilmiy asarlar arab tilida yozilgan bo'lsa-da, ommaviy imlo turkiy yozuvida bo'lgan.

Mahmud Qoshg'ariyning: «Barcha hoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qoshg'ardan Chingacha – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» degan guvohligi mo'g'ullar istilosi davrida ham o'z kuchida qolgan. Arab yozuvi IX asrdan boshlab qo'llanilgan bo'lsa-da, bu yozuv umumislomiy yozuv sifatida olimlar va ziyolilar orasida keng tarqalgan bo'lib, ommaviy imlo turkiy-uyg'uriy yozuv bo'lgan. Mo'g'ullar ham mazkur yozuvni qabul qilgan. Biroq XIV asrga kelib, mo'g'ullarning to'la-to'kis islom diniga o'tganligi sababli ta'lim-tarbiya tizimidan turkiy til asta-sekin siqib chiqarilgan. Mo'g'ullar o'zlarining tillarini mahalliy turkiy xalqqa o'rgata olmas edilar. Buning uchun ularning madaniy saviyalari va savodxonlik darajalari yetarli emas edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, mo'g'ullar mahalliy turkiy yozuvlar va tillar mavqeining o'sib borishiga to'sqinlik qilgan. Ular ta'lim-tarbiya tizimida nomo'g'uliy va noturkiy tilning ommalashishiga yo'l ochgan edilar.

Temuriylar davriga kelib ta'lim-tarbiya tizimining asosiy mafkurasi islom dini, tili va yozuvi arabcha hamda forsha bo'lganligidan dalolat beruvchi ko'plab dalillar mavjud. Bu sohada shubhasizki, Mir Alisher Navoiyning o'zi o'qigan maktabi haqidagi xotiralari eng aniq manba sifatida qayd etilishi zarur. Mir Alisher Navoiy o'z davri maktablari, undagi mashg'ulot mavzularini (saboqlarni) shunday eslaydi:

«Yodima mundoq kelur bu mojaru,

Kim tufuliyat chog‘i maktab aro,
Kim chekar atfol marhumi zabun,
Har tarafdin bir sabaq zabtig‘a un.
Emgonurlar chun sabaq ozoridin,
Yo «Kalomulloh»ning takroridin.
Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘qiturkim ravon bo‘lsun savod.
Nasrdin ba‘zi o‘qur ham doston,
Bu «Guliston» yanglig‘u ul «Bo‘ston».
Menga ul holatda tab‘i bulhavas,
«Mantiqut-tayr» aylab erdi multamas».

Mir Alisher Navoiyning yuqoridagi xotirasida ta‘limning 4 mavzui ko‘rsatilgan. Bular:

- 1) «Kalomulloh» takrori;
- 2) «Guliston»;
- 3) «Bo‘ston»;
- 4) «Mantiqut - tayr».

«Kalomulloh» arabcha, qolgan uch asar fors tilida yozilgan.

Biroq Sayfi Saroyining «Gulistoni bit turkiy» asari o‘sha davrda maktab dasturining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan Sa‘diy «Guliston»ining turkiy tildagi sharhi edi. «Guliston»ning turkiy tildagi sharhi turkiy tilda ta‘lim oladigan yoshlarning bu asarni o‘z ona tillarida o‘qishlari uchun imkoniyat yaratgan edi.

Temuriylar davrida turkiy til mavqei yana ko‘tarildi. Temuriylarning ko‘pchiligi o‘z asarlarini turkiy tilda yozganligi fikrimizni dalillaydi. Chunonchi, Amir Temur tomonidan yozilib, bizgacha yetib kelgan yagona asar «Temur tuzuklari» mutaxassislar A.A.Semyonov, Ch.Re, E.G.Braun hamda boshqalarning so‘zlariga qaraganda boshqa turkiy tilda yozilgan va nusxasi Yaman hokimi Ja‘far poshshoning kutubxonasida saqlangan. Mir Abu Tolib al-Husaniy at-Turbatiyning forscha tarjimasi ana shunday turkiycha nusxalardan biriga asoslangan edi. Mir Alisherning temuriylar davrida yetishib chiqqanligi va ular himoyasida o‘z

asarlari turkiy tilda yaratganligi ham o'sha davr hukmdorlarining mazkur tilga munosabatini yaqqol tasdiqlaydi.

XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida turkiy tilda ta'lim berish masalasi dolzarb muammo sifatida ko'tarildi. Bu sohada Xiva xoni Abulg'oz Bahodirxon alohida tashabbus ko'rsatdi. O'z davrining madaniy hayotida muhim o'rin tutgan Abulg'oz Bahodirxon XVII asrning dastlabki choragida hukmronlik qilgan, fors-tojik, arab, mo'g'ul tillarini yaxshi bilgan. Undan bizgacha meros qolgan «Shajarai tarokima» (taxminan 1658-1661 yillarda yozilgan) va «Shajarai turk» (1663-1653 yillarda yozilgan) asarlari tarixiy mavzudadir. Uning turkiy tilga bo'lgan munosabati mazkur har ikkala asarda ham o'z ifodasini topgan. Abulg'oz Bahodirxon ajdodlari tarixini sevgan turkman elati vakillari iltimosiga ko'ra yozilgan har ikkala asarini omma tushunadigan tilda va ommabop uslubda yozishga erishgan. Bu haqda uning o'zi shunday yozadi: «Barcha bilingkim, bizdan burun turkiy tarix aytqonlar arabiy lug'atlarni qo'shib tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar o'zlarining hunarlari va ustozlarini xalqqa ma'lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduk aning uchunkim, bu kitobni o'qug'uchi va tinglag'uchi turk bo'lg'usi turur. Bas, t u r k l a r g' a t u r k o n a aytmoq kerak to alarning barchasi fahm qilg'aylar, bizning aytg'an so'zimizni bilmasalar andin ne hosil?». Darhaqiqat, Abulg'oz Bahodirxon yashagan davrga kelib, «chig'atoy tili» nomi bilan yuritilgan turk (o'zbek) adabiy tili g'oyatda murakkablashgan bo'lib, uni tushunish tahsil oluvchilar uchun bir qadar mushkul edi. U o'zining oddiy, sodda bayon etish uslubini dabdabali chig'atoy tili uslubiga qarama-qarshi qo'yadi va yuqoridagi «Shajarai tarokima»dan keltirilgan parchada turklarga «turkona aytmoq kerak»ligini alohida ta'kidlaydi.

«Shajarai turk»da shunday yozadi: «...Bu tarixni yaxshi va yomon barchalari bilsun teb turkiy til birlan aytdum. Turkiy ham andoq aytubmankim, besh yashar o'g'lon tushunar. Bir kalima chig'atoy turkisidin va forsiydin va arabiydin qo'shmayman, ravshan bo'lsun teb». Ushbu parcha yana shundan dalolat beradiki, keng qamrovli bilim va faoliyat sohibi bo'lgan Abulg'oz Bahodirxon ona tilining

tozaligi, tiniqligi, barcha yoshdagi kishilar uchun tushunarli bo'lishi uchun harakat qilgan. Chunki turkiy tilda ta'lim berishga yo'naltirilgan o'quv vositalarini yaratish zarurati XVII-XVIII asrlarda ko'proq sezila boshlangan.

Turkiy tilda ta'lim beriladigan maktablar uchun dastlabki o'quv vositasi bo'lgan «So'fi Olloyor» nomi bilan ommalashgan asarni Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston (hozirgi Uyg'ur muxtoriyati), Eron, Afg'oniston, Kavkazdagi turkiyzabon bolalar XVIII asrning o'rtalaridan XX asr boshlarigacha o'qib kelgan. Ko'rinib turibdiki, bu mashhur kitob, ya'ni darslik turkiy xalqlar iltimosi va talabi asosida yaratilgan. Bu asarni muallif «ijmol», ya'ni qisqartirish, ixcham bayon etish usuli bilan yozgan va forsiy tilda («Maslakul mudtaqin») yigirma to'rt ming misralik mazmunni taxminan to'rt ming misradan iborat bo'lgan «Sabotul ojizin»da mujassamlashtirgan. «Sabotul ojizin», agar uning muallifini 1720 yillarda vafot etganligini nazarda tutsak, XVII asrning oxiri yoki XVIII asrning boshlarida yozilgan. Kitob islomiy axloq, adab, farz, vojib, sunnat, mustaxab, muboh, harom, makruh, munkir kabi amallarning sharhi, tasavvuf tariqati asoslari bayoni, shu masalalarga oid pand-nasihati va ibratomuz hikoya hamda rivoyatlardan iborat. Muallif bu asarda sharqda keng tarqalgan uslub va tarkibni saqlab qolgan. Dastlab savol, so'ngra masala bayoni, keyin ibratomuz hikoya hamda rivoyatlar keltirilgan. Kitob har bir shaxs bilishi va amal qilishi zarur bo'lgan ijtimoiy masalalarni qamrab olgan. Asar keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'lsa-da, unda hozirgi didaktik talablarga ko'ra, o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlari hisobga olinmagan. O'sha davrdagi ta'lim maqsadi to'la ifodalanmagan. Asarning tili g'oyat murakkab, arabcha-forscha so'zlar miqdori juda ko'p. Shunga ko'ra bu kitobdan sharhsiz, lug'atsiz foydalanish juda qiyin. Mazkur qiyinchiliklarni nazarda tutib «Sabotul ojizin»ga sharhlar yozilgan. Ulardan biri Tojiddin Yolchiqulning «Risoi aziza» asari (kitob Tojiddin Yolchiqul o'g'lining iltimosi asosida yozilganligi sababli shunday nomlangan) va ikkinchisi Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon al Farg'oniy al Qobuliy qalamiga mansub «Hidoyatul-tolibin» asaridir. Har ikkala sharh ham «Sabotul ojizin»ning tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida yozilgan. Bunday

sharhlarning mavjudligi turkiy tilda ta'lim berish tizimi, uning maqsadi muntazam rivojlanib borganligin tasdiqlovchi dalildir. «Sabotul ojizin»ning keng ommalashishi, uning hozirgi kunda ham ma'lum va mashhur bo'lgan o'nlab toshbosma nashr namunalari, yuzlab qo'lyozma nusxalarining XVIII asrda keng ommalashganligini ko'rsatadi.

Fikrimizni isbotlaydigan muhim dalillardan yana biri islomiy-ibtidoiy maktabda o'qish (harflarni tanish va ularni qo'shib o'qish) mahoratini egallagan (hozirgi taxminan II sinf darajasidagi savodlilik malakasiga ega bo'lgan) bolalar uchun zaruriy bo'lgan «Farzi ayn» («Eng muhim farzlar»)ning turkiy tilga tarjimasi va «Farzi ayni turkiy»ning ham juda ko'plab qo'lyozma hamda toshbosmalarda yetib kelganligidir. Besh islomiy farzning bayonini o'z ichiga olgan bu kitob juda ko'p hollarda ikki tilda ikki qismga ajratilib, bir kitob shaklida

—

a) «Farzi ayni turkiy» va b) «Farzi ayni forsiy» sifatida chop etilgan. Shuni aytish mumkinki, bugungi kunda XIX-XX asrlarda tarjima qilingan deb taxmin etilayotgan «Chor kitobi turkiy» ham XIX asrdan oldingi davrga, ya'ni XVIII asr o'rtalari (yoki oxirlari)ga mansubdir. «Chor kitob» XIV asrdan XX asrning boshlarigacha ta'lim fors-tojik tilida amalga oshiriladigan barcha ikkinchi bosqich (ibtidoiy) maktablarning «Farzi ayn»dan keyin o'rganiladigan darslik darajasidagi kitobi bo'lib, Xitoydan Xurosongacha, Markaziy Osiyodan Rungacha keng amalda bo'lgan. Forsiy tilda amalga oshiriladigan ta'limning asosiy vositalari hisoblangan kitoblarning turkiy tilga o'girilishi XVIII asrda ta'lim muassasalarida turkiy tilning o'qitilganidan va uning mavqei keskin oshganligidan dalolat beradi.

Ta'lim fors tilida amalga oshiriladigan maktablarda qo'llanilgan kitoblarning o'zbek tiliga o'girilishi va ularning keng ommalashishidan keyingi bosqich, shubhasizki, o'zbekcha darsliklar yaratish zaruriyati mavjudligini ko'rsatdi. Bu ishni birinchi bo'lib Shermuhammad Munis Xorazmiy amalga oshirdi. Munis Xorazmiyning pedagogikaga oid «Savodi ta'lim» risolasi bizgacha yetib kelgan. Bu asarning didaktik ahamiyati Y.Abdullayev, olim Q.Sultonova ishlarida maxsus tadqiq etilgan. 1804 yilda yozilgan mazkur asar («Risolai savod» deb ham

yuritilgan) she'riy usulda bitilgan bo'lib, talabalarga husnixat qoidalarini o'rgatishga mo'ljallangan. Didaktik xarakterdagi bu asar o'sha davr ta'lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shoir asarning birinchi qismida xat mashq qilishga tayyorgarlik va bu ish uchun kerakli o'quv anjomlari xususida fikr yuritadi. Ikkinchi qismida esa darslik xat mashqi va uning usuli to'g'risida amaliy yo'sinda ta'lim beradi. Yozuvning ahamiyatini anglash, insonlarni rostgo'y, bilimli, shirinso'z, savodli bo'lishga undaydi. Munisning «Savodi ta'lim» asari ham turkiyzabon aholi talabiga ko'ra yozilgan. Qo'llanmaning ta'lim ahliga qaratilganligi bunday qo'llanmalarga talabgorlar soni ko'pligidan dalolat beradi.

XVIII- XIX asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida turkiy tilda ta'lim berish ko'lami kengaydi. XIX asrning oxirlariga kelib esa jadidchilik harakati doirasida ta'lim maqsadi va mazmunining yangilanishiga asos bo'ldi.

Ta'lim taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jadidchilik harakati davrida o'zbek tilida o'qitish jarayonini tahlil qilishdan oldin XV-XIX asr oxirlarida Markaziy Osiyo ibtidoiy maktabida amal qilgan ta'lim maqsadi va mazmuni haqida fikr yuritamiz. XV-XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududidagi ibtidoiy maktablarda darslik sifatida foydalaniladigan asosiy kitoblarning qisqacha mazmuni S.Ayniy, G'.G'ulom, A.Avloniy, P.Shamsiyev kabilarning asarlarida yoritilgan. Y.Abdullayevning tadqiqot ishlarida arxiv materiallari, guvohlar ma'lumotlari asosida atroflicha tahlil etilgan. Olim bu haqida quyidagi fikrlarni bayon qiladi: «Bu tekshirishda eski maktablarda harf o'rgatilishi, «Haftiyaki sharif», «Qur'oni sharif», «Chor kitob», «So'fi Olloyor», «Xo'ja Hofiz», «Navoiy», «Fuzuliy», «Bedil», «Maslakul mudtaqin» kitoblari o'qitilishi aniqlangan». Ko'rinib turibdiki, o'quv materiali XVIII asrdan boshlab ikki – o'zbek va tojik tillarida bayon qilingan, ular asosan, badiiy, axloqiy, didaktik asarlar tarkibida berilgan. Bu mazkur hududda ta'lim-tarbiya ikki –o'zbek va tojik tillarida amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Bu an'ana uzoq tarixga ega bo'lib, bugungi kunda Respublikamizda ta'lim yetti tilda amalga oshirilmoqda.

Ta'lim maqsadi, o'quv vositalari mazmunining mutanosibligi ham uzoq tarixga ega. XVIII asrda maktablarda rivoyat janrida yozilgan asarlardan o'quv

materiali sifatida keng foydalanilgan. Albatta, ta'limning yetakchi maqsadi ma'naviy-axloqiy tarbiya berish ehtiyoji buni taqozo qilgan. Masalan, fors-tojik tilida yozilgan va Markaziy Osiyoda keng ommalashgan «Bobo arab va malika Dilorom» rivoyat-dostonida malika: «Kim men bilan she'r aytishda bellashsa va g'olib bo'lsa, unga turmushga chiqaman», -deb shart qo'yadi. Dostonda keltirilgan aytishuvlar tojik tilida bo'lib, bellashuvda malika g'olib bo'ladi. Biroq Bobo arab Badaviy qiyofasida kelgan Xizr payg'ambar bilan bo'lgan forsiy aytishuvda malika yengilayotganligini sezadi va eng oxirgi chorani ishga soladi. Aytishuvni turkiy tilga ko'chiradi. Bu dalil orqali maktablarda azal-azaldan bir nechta til o'rgatish ta'limning ustuvor maqsadidan biri bo'lib kelganligini ko'rsatadi.

Ta'lim maqsadlari dinamikasini, uning izchil rivojlanish jarayonini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, uzoq asrlar davomida ta'lim maqsadini jamiyat hayoti, shaxs ehtiyojlari, xalqning turmush tarzi asosida vujudga kelgan ijtimoiy buyurtma belgilab bergan. Yuqoridagi tahlillarimizdan kelib chiqqan holda VI-XIX asrlar ta'limida quyidagi maqsadlar ustuvor bo'lganligini aniqlash imkonini beradi:

1) yoshlarning savodxonligini ta'minlash, ularga ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya berish, yoshlarda vatanparvarlik, erksevarlik tuyg'ularini kamol toptirish, o'z xalqini, yurtini, umuman atrof-muhitni muhofaza qilishga odatlantirish, to'rt unsur sofliги uchun kurash hissini qaror toptirish, haq yo'lidan borishga o'rgatish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;

2) yoshlarga islomiy mafkurani singdirish, jamiyat uchun savodli, mo'min, komil insonni yetishtirish;

3) maktab va madrasalarda axloqiy ta'lim-tarbiya berish, turkiy tilning sofliğini saqlashga o'rgatish, ularni dunyoviy bilimlar: mantiq, riyoziyot, handasa, falakiyot, fiqh kabilardan xabardor qilish.

Ta'limning tadrijiy taraqqiyotidagi ushbu maqsadlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, ular davriylik xususiyatiga ega bo'lib, shubhasiz, ta'lim mazmuni, vositalari va usullari bilan mutanosib tarzda o'z ifodasini topgan. X asrdan boshlab didaktikamizda bolalarning qobiliyatlariga asoslangan holda differensial yondashuv qaror topa boshlagan.

O'zbekiston (Turkiston)da jadidchilik harakati, jadid namoyandalarining dunyoqarashi, millat, vatan, til, taraqqiyot, iqtisod, madaniyat va mafkuraga doir ishlarini haq nuqtai nazaridan o'rganish imkoniyati mustaqillik yillarida paydo bo'ldi. Chunki uzoq yillar davomida «jadid» tushunchasi «xalq dushmani», «xoin», «vatan dushmani» tushunchalari bilan teng edi. Shu bois o'zbek xalqi tarixida XX asrning boshlarida shakllangan jadidchilik harakati sobiq sovet tarixchilari tomonidan tabiiy tarzda yoritilmagan yoki qisman yoritilganda ham ularning faoliyatiga ob'ektiv baho berilmagan edi. Mustaqillik yillarida jadidchilik harkatini ilmiy talqin qilishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi, ko'plab ilmiy anjumanlar o'tkazildi, jadidchilik harakati namoyandalari merosining ommaviy nashrlari amalga oshirildi.

Jadidchilik harakatining markazida milliy taraqqiyot, milliy-zamonaviy madaniyat va ta'lim, undan keyingina iqtisod va siyosat masalalari turganligi sababli ta'lim-tarbiya muammosi jadid harakati namoyandalarining diqqat markazidagi masala edi. Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir» degan jumalari fikrimiz isbotidir. Ta'lim-tarbiya tizimining asosini ta'lim maqsadi, uning mazmuni, usuli, vositalari va ta'lim tili tashkil etadi. Mafkura nuqtai nazaridan jadidlar yakdillik bilan milliy-zamonaviy, islomiy, dunyoviy qarashda bo'lsalar-da, ular ta'lim maqsadi va mazmuni haqida, adabiy til masalasida to'la hamfikrlikka ega emas edilar. Shuning uchun ham o'sha davrda ayni bir darslikning ko'plab variantlari, muqobillari yaratilgan: alifbe, o'qish, geografiya darsliklari bunga misol bo'la oladi. Garchi har xil bo'lsa-da, jadidlarning ta'lim maqsadi va mazmuniga munosabati pedagogika tarixi uchun muhim qimmatga ega. Birinchidan, jadidlar ta'limning dunyoviy bo'lishi, uning mazmunida milliy qadriyatlar singdirilishi, yoshlarda milliy g'urur, iftixor tuyg'usining qaror toptirilishi tarafdori edilar. Ikkinchidan, jadidlar ta'limning islomiyligiga qarshi emas edilar, biroq uning ilk bosqichida Qur'onni o'qish ko'nikmalari hosil qilinishiga qarshi edilar. (Uzoq asrlar davomida arab tili rasmiy til sifatida iste'molda bo'lib kelganligi ma'lum. Shuning uchun ham o'sha davr

ta'limining ibtidoiy bosqichi taxtacha, abjad, «Haftiyak» qismlari Qur'onni to'g'ri o'qiy olish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan edi.) Chunonchi, Abdulla Avloniy «Birinchi muallim» darsligining so'z boshisida shunday yozadi: «Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning «Birinchi muallim»imizdan ham olub, tajriba qilub, o'qutub ko'rsalar...». Ko'rinib turibdiki, ustoz Avloniy bolalar taxtacha, abjad, «Haftiyak» o'rniida dunyoviy, axloqiy, tarbiyaviy mohiyatga ega bo'lgan «Birinchi muallim» kitobini o'rganishlarini tajriba qilib ko'rishni ehtiyotkorlik bilan taklif etadi. O'sha davrda jadidlar turkiy tilda ta'lim berish taklifini ehtiyotkorlik bilan ko'tarib chiqdilar. Biroq ular ta'lim tizimidan fors va arab tillarini chetlashtirish taklifini ko'tarib chiqishga jur'at qila olmaganlar. Chunonchi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1913 yilda yozgan «Ikki emas, to'rt til lozim» maqolasida shunday yozadi: «Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozumdur». Ushbu maqolada Behbudiy bu tillardan har birining ta'lim tizimida tutgan o'rnini alohida ochib beradi.

Ta'lim tili to'g'risida jadidlarning ilk ibtidoiy maktab ta'limi tili bolalarning ona tiliga asoslanishi kerakligi haqidagi mushtarak fikri Saidrasul Aziziyning «Ustozi avval» (1900), Munavvar qori Abdurashidovning «Adibi avval» (1907), Behbudiyning «Kitobi muntaxabi jug'rofiyai umumiy» (1906), «Kitobatul-atfol» (1908), Hamzaning «Yengil adabiyot» (1911), «O'qish kitobi» (1911), «Qiroat kitobi» (1912), Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» (1912), «Ikkinchi muallim» (1912), «Turkiy guliston yohud axloq» (1913), «Maktab gulistoni» (1917), Elbekning «O'zbekcha o'qish» (1922) kabi kitob (darslik)larida o'z aksini topdi.

Jadidlarning ta'lim, ayniqsa, o'quv jarayonining dastlabki bosqichi mazkur xalqning o'z ona tilida amalga oshirilishi lozimligi haqidagi fikrlari o'sha davr uchun muhim ahamiyatga ega edi. Jadidlar ta'limni ona tilida amalga oshirish zarurligini ta'kidlash bilan bir qatorda o'quvchilarga sof, toza adabiy til me'yorlarini singdirish muhimligini ham uqtirgan edi. Behbudiy 1910-1915 yillarda jadid matbuoti sahifasida hukmron bo'lgan «Tilimizdan forsiy va arabiyini quvayluk» shiorini «Ko'p yengil, ammo ijrosi mumkin emas orzulardandur» deb

baholaydi va butun Turkiston mintaqasi uchun yagona adabiy til yaratish mumkin emasligini ta'kidlab: «...baqadri imkon oz adabiy va forsiy, oddiy turkiy lug'at ila hozirgi shevalarcha yoza bermoqdin boshqa iloj yo'qdur» degan g'oyani ilgari suradi. Behbudiy fikricha, Turkistonda yagona ona tilini ta'lim tizimiga joriy etishdan oldin, onalarimizning o'zlari bir necha avlod davomida me'yorlashtirilgan adabiy tilda o'qitilgan bo'lmog'i lozim.

Jadidlarning sa'y-harakati bilan ta'lim maqsadining ko'lami kengaydi. Uning ta'lim mazmuni, metodlari bilan mutanosibligini ta'minlash sari muhim qadamlar qo'yildi. Lekin jadidlar o'quv predmetlari tizimiga asoslangan ta'lim mazmunini belgilash masalasini hal qilmaganlar. Bu davrda ta'lim maqsadi va mazmuniga oid turli tushunchalar bir qadar integrallashtirilgan holda bayon etildi. Ta'limni dunyoviylashtirish yo'nalishida jadidlarning xizmati o'zbek madaniyati tarixida inqilobiydir. O'sha davrda hali hozirgi O'zbekiston Rossiya tarkibidagi Turkiston general gubernatorligi Rossiya yarim mustamlakasi bo'lgan Qo'qon va Xiva xonliklari hamda uning qarami bo'lgan Buxoro amirliklariga bo'lingan bo'lsa-da, jadidchilikning ta'lim maqsadi va mazmuni, ta'lim tili va usuli Markaziy Osiyo bo'ylab deyarli bir xil yo'nalishda edi. Hozirgi O'zbekiston mintaqasidagi maktablarda dunyoviy-ma'rifiy ta'limni ona tilida yo'lga qo'yishda, zamonaviy ta'lim usullarini ommalashishida, ona tilida imlo, talaffuz va qiroatni yo'lga qo'yishda jadidchilik harakatining ijobiy ta'siri sezilarli bo'ldi. Biroq, jadidlar ilmiy-nazariy jihatdan ham, iqtisodiy-siyosiy jihatdan ham, hududiy-mintaqaviy jihatdan ham o'ta chegaralangan bo'lganligi sababli yagona milliy davlat, yagona milliy adabiy til, yagona milliy ta'lim tizimi va uning tili masalalarini kun tartibiga qo'yishdan nariga o'ta olmadilar.

Tabiiyki, o'sha ijtimoiy-siyosiy-mafkuraviy-iqtisodiy sharoitda jadidlar ta'limning tugal dunyoviyligi muammosini o'rta qo'ya olmas edilar. Shuning uchun ham ularda ta'limning islomiy bo'lishi zarur shartlardan biri edi. Demak, jadidlar ta'limni to'la-to'kis ona (o'zbek) tiliga o'tkazishni, uni islomiy dunyoqarashdan uzilmagan holda zamonaviy ilm-fan-texnika, iqtisod va siyosatdan xabardor shaxsni tarbiyalashga qaratish, bunday shaxsni tarbiyalashda

ona tilini asosiy qurol qilish g'oyalarini ilgari surdilar. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, o'sha davrda ona tili ta'limi oldida xat-savodlilikni ta'minlash, zamonaviy fan va madaniyatni egallashga yo'l ochish maqsadi qo'yilgan edi. Ya'ni jadidlar ona tili ta'limi maqsadini endi oddiy savodli mo'-'minni yetishtirish deb emas, balki xat-savodli (madaniyatli), zamonaviy fan-texnika asoslaridan xabardor milliy ruhli shaxsni tarbiyalash deb tushunganlar. Bunday tushunish, shubhasizki, XV-XIX asrlarda hukmron bo'lgan xat-savodli musulmonni yetishtirish maqsadidan bir bosqich baland edi, chunki tarbiyalanuvchini zamonasining (o'z mamlakatining emas, balki dunyodagi) ilg'or fan va madaniyatni egallashga layoqatli, shu bilan birga milliy tuyg'ular bilan yo'g'dirilgan tarzda tayyorlash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa:

1. Mavjud adabiyotlar hamda ijtimoiy-pedagogik muhit tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'limning bosh maqsadini belgilash muhim ijtimoiy, siyosiy, didaktik hodisa bo'lib, u davlat va jamiyatning ta'lim oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasini o'zida to'la ifodalaydi.

2. Ta'limning bosh maqsadi bilan xususiy maqsadlari orasidagi didaktik aloqani nazariy jihatdan o'rganish va ushbu mutanosiblikni ta'minlash yo'llarini ko'rsatish pedagogika fanining o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolaridan biridir.

3. Didaktika tarixini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, barcha davrlarda ham ta'limning bosh maqsadi va xususiy maqsadlari ijtimoiy buyurtma hamda shaxs ehtiyojlarini o'zida ifodalab muntazam rivojlanib, takomillashib kelgan.

4. Mavjud holat tahlili shundan dalolat beradiki, o'quv materiallari, ta'limiy topshiriqlar, didaktik ishlanmalar o'qitish usullari va metodlari bilan ta'limning umumiy hamda xususiy maqsadlari orasida aksariyat hollarda mutanosiblik ta'minlanmagan bo'lib, ushbu aloqadorlikni ta'minlash yo'llarini ishlab chikish o'z yechimini kutayotgan muammolaridan biridir.

II BOB

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA TA'LIM MAQSADLARI BILAN UNING MAZMUNI ORASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH METODIKASI

II.1. Boshlang'ich sinf darslarida ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni, vosita va usullari mutanosibligini ta'minlashning didaktik-psixologik asoslari

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarshi, kommunikativ savodxonligi va o'z- o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga jismonan soglom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarni xis eta olishga, g o'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqqash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o'z navbatida bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim davlat standarti o'quv predmeti bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilandi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart ko'rsatkichlari 7(6)-11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan ta'lim mazmunining miqdoriga asoslanib belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta'lim mazmuni ko'lamini chegaralash, ta'lim sohasini integratsiyalash imkonini beradi. Davlat ta'lim standartini belgilash boshlang'ich ta'lim mazmunini konseptual asosga tayangan holda modernizatsiyalash (davrlar talablari nuqtai nazardan yangilash) ni ko'zda tutadi.

Davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlarni belgilashga imkon yaratadi. Boshlang'ich ta'lim standartining asosini davlat va

jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda ayni shu boshlangich sinf o'quvchilarida ko'nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan ta'lim sohalarining mujassamlashgan predmentlari tashkil qiladi.

Boshlangich ta'lim standarti mazkur ta'lim bosqichining har bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart predmentlari mazkur ta'lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi shu mazmunning tarkibiy qismlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umumpedagogik, psixologik, texnologik tizimi va darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e'tibor boshlangich ta'lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to'laqonlilikni saqlab qolishga qaratiladi.

Boshlangich ta'lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qo'yildigan talabda ta'lim sohaları bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uygunlik to'la ta'minlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlangich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlangich ta'lim jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi. quyidagi pedagogik omillar ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash uchun asos yarata oladi:

- boshlangich ta'lim jarayoniga kiritilgan har bir ta'lim sohasi bo'yicha belgilanadigan ta'lim mazmuniga o'quv materiallarning tadrijiy tarzda berilishini ta'minlash;

- ta'lim jarayonini ta'lim sohalarining maqsadiga bo'ysundirish va ta'lim sohalararo maqsadlarga mutanosibligini ta'minlash;

- har bir ta'lim sohasi bo'yicha boshlangich sinf o'quvchilarida hosil bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq darajalarini hamda ta'lim natijasini baholash mezoniga qo'yiladigan talablarni boshlangich ta'lim standartining asosiy parametrlari bo'yicha ishlab chiqish.

Boshlangich ta'lim standarti ta'lim sohalariga qo'yilgan standart ko'rsatkichlarini mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta'lim sohalarida belgilab qo'yilgan ta'lim standartining ko'rsatkichlari tashkil etadi. Ta'lim sohaları bo'yicha ta'lim natijasining sifati xuddi mana shu ko'rsatkichlarga

asoslangan holda aniqlanadi. Bu o'rinda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar umumlashtiriladi hamda aniq o'lchov birliklarida ifodalanadi.

Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanib jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlangich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'limi sohalari kiritiladi.

Boshlangich ta'lim bosqichida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz, arab kabi) tillarni o'rganish ixtiyoriy bo'lib, u maktab komponentidagi soatlar hisobiga amalga oshirilishi mumkin. o'zbek maktablari uchun rus tili, o'qishlar boshqa tillarda (rus, qozoq, turkman, tojik, qirgiz va boshqa) olib boriladigan maktablarda davlat tili (o'zbek tili) ni o'qitish konsepsiyasidan hamda "Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili davlat ta'lim standarti" da o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu sohalarda olib boriladigan ta'lim mazmuni mazkur standart talablariga tayangan holda belgilanishi lozim.

1-4 sinflar

1. Ona tili va o'qish. Boshlangich sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish bo'yicha quydagi bilim, ko'nikama va malakalarni egallashlari shart.

A) o'qish texnikasi bo'yicha:

- bir daqiqada 80-90 so'zni o'qiy olish talablari.
- xarflarni to'g'ri talaffuz etish.
- so'zlarni to'g'ri o'qish.
- gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va obrazli o'qish.
- gapdagi tinish belgilarni talaffuzi

II.2. Boshlang'ich ta'lim mazmuniga muvofiq ta'lim maqsadlarini belgilash metodikasi

Ta'lim-tarbiyaning samaradorligi birinchi navbatda sifatli ta'limga bog'liq. Sifatli ta'lim esa xalqona tilda aytganda yaxshi muallimga, o'qituvchi va tarbiyachiga bog'liq. Bir soatlik dars davomida pedagog o'quvchilarga juda ko'plab bilim va ma'lumotlar berib, ularning fanga oid qiziqishlarini oshirishi yoki

vaqtlarini behuda va samarasiz tashkil etishi ham mumkin. Jamiyat rivojlanib borayotgan bugungi tezkor davrda esa har bir soat dars, unda o'qituvchi nimalar haqida gapirishi, ularni qanday yangiliklardan xabardor etishi, xullas, barcha-barchasi oldindan reja qilingan, o'qituvchining dars ishlanmasida aks etgan bo'lishi lozim. Xabaringiz bor, ta'lim sohasida yuz berayotgan yangiliklar tufayli dars ishlanma yaratish usulida ham bir oz o'zgarishlar bo'ldi. Agar siz sohaga endigina kirib kelgan pedagog bo'lsangiz va shu paytgacha tayyor, na'munali dars ishlanmalardan foydalanib, o'zingiz mustaqil yaratmagan bo'lsangiz, unda bizning maslahatlarimiz aynan siz uchun. Bugungi maqolamizda dars ishlanma yozish bosqichlari, tayanch va fanga oid shakllantiruvchi kompetensiyalarni qanday belgilash borasida tavsiyalar beramiz.

Dars — bu, sinfda taqvim-mavzu reja asosida belgilangan vaqt davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar uchun o'quv-tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etilishidir.

Shunday ekan, har bir o'qituvchi darsga sifatli va puxta tayyorlanmasdan kirishni insoniylikka, o'quvchilarning porloq kelajagiga xiyonat deb bilmog'i lozim. Darsga tayyorgarlik shartli ravishda quyidagi ikki bosqichdan iborat:

1. O'qituvchining o'z fani yuzasidan umumiy tayyorgarligi.
2. O'qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi.

O'qituvchining umumiy tayyorgarligi muntazam amalga oshirib boriladigan jarayon bo'lib, o'quv yili boshlanishi oldidan quyidagilarni qamrab oladi:

— Davlat ta'lim standarti (DTS), o'quv dasturi, o'quv reja hamda ularga berilgan tushuntirish xatlarini o'rganib chiqish;

— o'zi dars beradigan o'quv faniga oid yangi ilmiy va metodik adabiyotlarning mazmuni bilan tanishish;

— tegishli ko'rgazma materiallari, o'quv-jihozlarini o'rganish, ularni qo'llay bilish;

— ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, tahlil qilish orqali o'z bilimini kengaytirish;

— kompyuter texnikasidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirib, bu boradagi mahoratini oshirish, elektron darsliklar, matn muharrirlari, “ZiyoNet” axborot ta’lim portaliga joylangan ma’lumotlardan samarali foydalanish kabilardir.

O‘qituvchining darsga kundalik tayyorgarligi eng asosiy vazifalardandir.

Jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi lozim:

1-bosqich: Taqvim-mavzu rejadagi yangi mavzu va unga ajratilgan vaqt (soat) aniqlashtirib olinadi.

2-bosqich: DTS va o‘quv dasturidan o‘tilayotgan mavzu yuzasidan o‘quvchida qanday tushunchalar (bilim, ko‘nikma va malakalar) shakllantirilishi lozimligi aniqlashtirilib, shu asosida dars maqsadlari belgilab olinadi.

3-bosqich: Mavzu asosida darsda foydalaniladigan texnik vositalar, elektron manbalar, slaydlar, ko‘rgazmali va didaktik materiallar, adabiyotlar o‘rganib chiqiladi hamda dars ishlanmasi yoziladi.

Dars ishlanmasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Sana va sinf. Parallel sinflar uchun bitta mavzu bo‘yicha alohida-alohida dars ishlanmasi yozish shart emas. Bitta mavzuga bitta dars ishlanmasi yozilsa kifoya. 3-«A», «B» sinflar deb ko‘rsatiladi va fan nomi yoziladi.

Darsning mavzusi taqvim-mavzu reja asosida yoziladi.

Dars maqsadida 45 daqiqa davomida bajariladigan va erishiladigan aniq maqsadlar ko‘rsatiladi. Shunday ekan, **ta’limiy maqsadni** — dars jarayonida o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar asosida;

tarbiyaviy maqsadni — dars jarayonida o‘quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida;

rivojlantiruvchi maqsadni esa — dars natijasida o‘quvchilarda qaysi bilimlar va axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilaymiz. Darsda qaysi **kompetensiyalar shakllantirilishi ham maqsadlardan keyin belgilanadi.** Ayni paytda ko‘pchilik pedagoglarimizda bu borada ayrim tushunmovchiliklar uchrayotganligi bois kompetensiyaviy maqsadlarni aniqlash borasida kengroq to‘xtalib o‘tamiz.

Dars ishlanmasida **tayanch va fanga oid kompetensiyalar** ko'rsatiladi. Shuni unutmangki, oltita tayanch kompetensiyalar, har bir fanga taalluqli va ular har bir dars ishlanmada aks etishi lozim. Ular quyidagilardan iborat. 1.Kommunikativ kompetensiya. 2.Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. 3. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi. 4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. 5.Milliy va umummilliy kompetensiya. 6.Matematik savodxonlik, fan, texnika, yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Bir soatlik darsda mazkur tayanch kompetensiyalarning bir yoki ikkitasi, dars mavzusidan kelib chiqib kiritiladi. Masalan, ona tili, o'qish, matematika, ingliz tili, tabiatshunoslik kabilarda dars mavzusi, tanlagan pedagogik usul, AKT texnologiyalaridan foydalanishi kabi omillar asosida siz oldindan tayanch kompetensiyalarning aynan qaysilari bugungi darsda shakllantirilishini aniqlab olasiz.

Bu borada yanayam aniq tasavvurga ega bo'lishingiz uchun shakllantiriladigan tayanch kompetensiyani aniqlashni 4-sinf "O'qish" darsi mavzusi asosida ko'rib chiqamiz.

O'qish kitobining IV-chorak uchun mo'ljallangan "Nima yaxshiyu, nima yomon?"deb nomlangan bo'limida muallif Hakim Nazirning "Qodir bilan Sobir" hikoyasi berilgan. Avvalo hikoya bilan yaxshilab tanishib chiqamiz. Asarda Qodir ismli bolaning zo'ravonligi va maqtanchoqligi haqida hikoya qilinadi. Shundan so'ng darsni qanday tashkil etishni o'ylaymiz. Chunki tayanch kompetensiya mavzuga va sizning dars mavzusini o'tish usulingizdan kelib chiqib aniqlanadi. Olaylik, yangi mavzu o'qib tanishtirilgach, hikoyani qayta hikoyalatish, qisqartirib hikoyalatish, tanlab hikoyalatishingiz mumkin. O'quvchilarning xulosa fikrlari aytilib, qahramonlarning xatti-harakatlari tahlil qilingach, "Ven" diagrammasi asosida Qodir bilan Sobirning fe'liga xos xususiyatlar ifodalanadi va mavzu mustahkamlanadi. Xulosa qismida o'quvchilar birovning ustidan kulish, do'stiga ozor berish, masxaralash yomon odatligini, bizning o'zbekona odatlarimizda ham kattalarga yolg'on gapirish qattiq tanqid qilinishini ta'kidlaydilar. Qodir maqtanchoq bo'la turib qo'rqqoqligini ham

ko'rsatib qo'ygani, o'qituvchisining "Zo'r odam kuchini o'qishda ko'rsatadi" gapi hikoyaning asosiy g'oyasi ekanligi aytiladi va hikoya mazmunini o'quvchilar chuqur tushunib oladilar. Uyga vazifa sifatida esa "Hikoyani rollarga bo'lib ijro etish"ga tayyorlanib kelish topshirig'i beriladi.

Demak, dars jarayonida mazkur topshiriqlar bajarilishini inobatga olib tayanch kompetensiya turkimidagi kommunikativ hamda milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishni maqsad kilib qo'yishingiz mumkin. Chunki o'quvchilar hikoyani qayta hikoyalab, qisqartirib hikoyalaganda va rollarga bo'lib ijro etganida ulardagi **kommunikativ kompetensiya** shakllansa, Qodir va Sobirga hos salbiy va ijobiy harakter tahlil qilinganida o'zbekona milliy an'analarimiz, xalqimizga xos bo'lgan yaxshi fazilatlar haqida ham gapirib o'tiladi. Demak, bu orqali darsda **milliy va umummadaniy tayanch kompetensiyasi** ham shakllantiriladi.

Agar darsingizda navbatdagi boshqa mavzularni o'tib, unda boshqa texnologiya va qo'shimcha ma'lumotlardan foydalansangiz, unda albatta boshqa tayanch kompetensiyalarini ham shakllantirishingiz mumkin. Olaylik, mamlakatimizda muhim siyosiy jarayonlar — saylov, xalqaro darajadagi yirik uchrashuv va konferensiyalar bo'lganida, umumxalq bayramlari arafasida o'quvchilar bilan mavzuga oid "Ma'naviyat daqiqasi" yoki suhbatlar tashkil etganingizda "Ijtimoiy faol fuqarolik", "Matematik savodxonlik, fan-texnika, yangiliklardan xabardor bo'lish hamda foydalanish" kompetensiyalarini shakllantirishni ham maqsad qilib qo'yishingiz mumkin. Faqat shuni unutmangki, ona tili darsida kommunikativ kompetensiya tayanch kompetensiya sifatida olinmaydi. Chunki ona tili darsining asosiy maqsadi ham kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdir.

Shundan so'ng fanga oid kompetensiya yoziladi. Har bir fanda shakllantiruvchi ikkitadan kompetensiya belgilangan bo'lib, ular o'zgarmaydi. O'ylaymizki, boshlang'ich sinfda o'tiladigan har bir fanga oid kompetensiyalardan yaxshi xabaringiz bor. Shu bois ularning har birini alohida keltirmadik. O'qish faniga oid kompetensiyaning birinchisi **adabiy-nutqiy kompetensiya (tinglab**

tushunish, fikrni ogʻzaki bayon qilish, oʻqish, fikrni yozma bayon qilish) boʻlsa, ikkinchisi badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasidir. Siz har doim oʻqish fanidan dars ishlanma yozganingizda tayanch kompetensiyalardan keyin fanga oid yuqoridagi ikki kompetensiyani ham mana bu tarzda kiritasiz. FK1.Adabiy –nutqiy kompetensiya. FK2.Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi. Darsda oʻquvchilarning nimalarni oʻzlashtirishi, qanday yangi bilimlarni oʻrganishidan kelib chiqib fanga oid kompetensiyalarni kiritasiz. Masalan, yuqoridagi “Qodir bilan Sobir” hikoyasida oʻquvchilar FK1ga oid badiiy asarni tinglab-tushunish, oʻqish, fikrni ogʻzaki bayon qilish kabi asosiy talablarni, FK2ga binoan esa asarning badiiy gʻoyasini tushunish, undan tegishli xulosa chiqarish va qahramonlar tushgan vaziyatga nisbatan oʻz munosabatlarini bildirib olishi kabilarni oʻzlashtiradi. Siz buni fanga oid kompetensiyada koʻrsatganingizdan keyin darsning turiga aniqlik kiritib olamiz.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi; oʻquvchilarning bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantiruvchi; umumlashtiruvchi; oʻquvchilar egallagan bilim, koʻnikma va malakalarni tahlil, nazorat qiluvchi kabilarga boʻlinadi.

Darsda foydalaniladigan metodlar: bunda anʼanaviy, zamonaviy, interfaol metodlardan qaysilarini ishlatasangiz, ularni koʻrsatasiz. Har bir pedagogik texnologiya va usullar dars mavzusini chuqur tushunib yetishga hizmat qilmogʻi lozim. Dars oʻyin soatlari ham aylanib ketmasligi kerak.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: texnik vositalar, slaydlar, koʻrgazmali va didaktik materiallar.

Darsni tarkiban quyidagi qismlarga ajratamiz:

Tashkiliy qism;

Oʻtilgan mavzuni takrorlash (mustahkamlash);

Yangi mavzuni tushuntirish;

Yangi mavzuni mustahkamlash;

Oʻquvchilarni baholash;

Uyga vazifa berish.

Dars ishlanmasini tayyorlashda o'qituvchi darsning har bir qismini e'tiborga olishi lozim. Yangi mavzuni o'tishga katta e'tibor qaratilib, bolalarning darsdagi ishtirokini baholashga yoki mavzuni mustahkamlashga vaqt yetmay qolmasligi kerak. Dars yakunida albatta o'quvchilarning bilimi va faolligi baholanishi maqsadga muvofiq.

Darvoqe, dars ishlanmasi qanday mazmunda, hajmda va necha varaqdan iborat bo'lishi o'qituvchining dars o'tishdagi o'ziga xos yondashuvidan kelib chiqadi. Ammo u har bir o'qituvchida bo'lishi lozim. Pedagog darsni rejalashtirayotganda o'quvchilarning imkoniyatini e'tiborga olishi, ularning o'z iqtidori va bilimini namoyish etishiga sharoit yaratib berishi kerak.

Agarda sinf o'quvchilarining o'zlashtirish samaradorligi yuqori bo'lib, ular turli ko'rik-tanlovlarda yuqori natijalarga erishgan bo'lsa, o'qituvchining dars jarayoniga maktab ma'muriyati va hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari xodimlari tomonidan halaqit berishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Dars ishlanmasi qo'lyozma shaklida yoki kompyuterda yozilishi mumkin. Direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari har bir o'qituvchining dars ishlanmasini ko'rib, tasdiqlash jarayonida ularda darsga kirish uchun quyidagi eng muhim hujjatlar bo'lishini nazorat qiladi:

- dars ishlanmasi (konspekti);
- taqvim-mavzu reja;
- o'quv dasturi;
- darslik.

Shuni yodingizdan chiqarmangki, namunali dars ishlanma yaratish yoki yaxshi dars o'tish malakasi qisqa davr ichida erishiladigan natija emas. Unga muntazam o'z ustingizda ishlash va tajribali hamkasblaringizning darslarni kuzatish, o'rganish orqali erishasiz. Zero, eng yaxshi va moxir ustoz— bu eng qiziqarli va maroqli dars o'tgan, o'quvchilarning butun fikru-zikrini mavzuga, mahliyo qilgan pedagogdir. Shunda o'quvchilarning o'rganish jarayoni zavqli kechadi, vaqtning o'tib ketgani bilinmaydi.

Shakllanishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalarning elementlari				
Kommunikativ kompetensiya				
➤ Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish; ➤ o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq hamda tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ➤ ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish; ➤ muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish; ➤ turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish				
1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	
✓ harflarni, so'zlarni to'g'ri yoza olish; ✓ mashq va topshiriqlarni ko'chirib yozish; ✓ mavzu bo'yicha savollarga javob berish, tushunmaganlari yuzasidan	✓ darsga oid ko'rsatmalar va o'qituvchi nutqini tushunish; ✓ so'z, so'z birikmalarini to'g'ri yozish; ✓ salomlashish, o'zini tanishtirish, minnatdorchilik bildirish,	✓ ona tili va birorta xorijiy tilda o'zlashtirish, muloqotda qo'llay olish; ✓ voqea-hodisa yoki predmet tasvirini sodda bayon qilish; ✓ qisqa matnlarni gapirib berish; ✓ mavzu	✓ muloqotga kirishishda muomala madaniyatiga rioya qilish; ✓ muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilish; ✓ olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish; ✓ voqea, hodisalarga mustaqil ravishda munosabat bildirish; ✓ mavzudan kelib chiqib savollarni to'g'ri qo'ya olish va javob berish; ✓ jamoaviy hamkorlikda ishlay olish.	

savollar berish; ✓ o‘z fikrini og‘zaki bayon qilish ✓ suhbat jarayonida ilk tushunchalarni xorijiy tilda ayta olish.	iltimos qilish, kechirim so‘rash kabi muomala odobini bilish. ✓ daftar muqovasi, kundalik daftarini mustaqil to‘ldirish; ✓ o‘qituvchi va o‘quvchilarni tinglash, o‘z fikrini tushuntira olish; ✓ turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.	bo‘yicha savollar berish hamda savollarga javob berish; ✓ tinglanayotgan sodda matnni to‘g‘ri yoza olish; ✓ muloqotda muomala odobiga rioya qilish; ✓ suhbatdoshi ning fikrini tinglay olish, o‘z fikrini tushuntira bilish; ✓ maktabda, ko‘chada, uydagi turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish.	
Axborot bilan ishlash kompetensiyasi			
➤ mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish; ➤ media vositalardan zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media madaniyatga rioya qilish; ➤ ma’lumotlar bazasini yarata olish, asosiylarini tanlay olish va ularni tahlil			

qila bilish;			
➤ kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)			
1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
✓ televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, tinglash va gapirib berish.	✓ jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish; ✓ televizor, telefondan to'g'ri foydalanish.	✓ televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlariga to'g'ri javob qaytarish; ✓ media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish;	✓ axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; ✓ media vositalardan didaktik materiallardan foydalanish, fayllarni ochishda media madaniyatga rioya qilish.

Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi			
➤ Shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;			
➤ Faoliyati davomida o'qib-o'rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;			
➤ O'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlariga ega bo'lish;			
➤ O'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.			
1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf

✓ o'quv fanlarini o'rganish; ✓ kun tartibiga amal qilish; ✓ yolg'onchilik va chaqimchilik qilmaslik, to'g'rilik, mehribonlik kabi sifatlarga ega bo'lish; ✓ jamoat joylarida tozalikka rioya qilish; ✓ odobli bo'lishga harakat qilish; ✓ kattalarni gapiga quloq tutish, o'z xatosini tushunish	✓ o'quv fanlarini o'rganish va bir-biridan farqlash; ✓ mehnatsevarlik, to'g'rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo'lish; ✓ kun tartibiga qat'iy amal qilish, jismoniy kamolotga erishish uchun muntazam badantarbiya bilan shug'ullanish; ✓ o'z xatosini tushunish va tuzatish.	✓ maktabda, to'garakda fanlarni o'qib-o'rganish, uyda rasmlar kitoblar, jurnallar orqali mustaqil o'rganish orqali bilimni oshirib borish; ✓ sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullanish; ✓ o'zini nazorat qila bilish; ✓ o'zini tuta olish, to'g'ri so'z bo'lish, o'zining xatosini tushunish, o'rtoqlarining xatosini tushuntirish; ✓ kattalarga, kichiklarga, o'rtoqlariga yordam berish.	✓ o'qib-o'rganish orqali bilimni oshirib borish; ✓ kun tartibini to'g'ri tashkil qilish; ✓ turli yo'nalishdagi (ertak, sarguzasht, hikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish; ✓ o'zining xato va kamchiligini to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish, xatolarini tuzatishga harakat qilish, ✓ halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi sifatlarga ega bo'lish; ✓ yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlash, yaxshi fazilatlarga rioya qilish.
--	--	--	---

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

- Jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;
- O‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);
- Mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- Kasbiy mavqeining o‘rishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muxtojlariga sahovatli bo‘lish.

1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
✓ maktabda, oilada bo‘layotgan jarayonlarda ishtirok etish; ✓ o‘zining o‘quvchilik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish;	✓ davlat ramzlarini bilish; ✓ o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish. ✓ sinfdagi va oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish; ✓ o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlari va o‘zidan kichiklarga yordam	✓ davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish; ✓ farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga amal qilish; ✓ o‘zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish. ✓ sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash;	✓ o‘quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish; ✓ maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda (ko‘rik tanlovlar, hashar va h.k.) ishtirok etish va muomala madaniyatga amal qilish; (kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘lish ✓ oiladagi o‘z o‘rnini hamda vazifalarini anglay olish; ✓ maktab binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash

	berish.	✓ maktabda, oilada, turar joyida bo‘layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va x.k.) ishtirok etish;	
--	---------	--	--

Umummadaniy kompetensiyalar

- Vatanga sadoqatli, insonlarga hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san‘at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me‘yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish,
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (*urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va.h.k.*) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e‘tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma‘naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
✓ orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, ✓ do‘stlariga, yaqinlari va	✓ orasta kiyinish, yurish- turishda kattalardan o‘rnak olish, ✓ o‘z uyi, maktabi, turar	✓ o‘zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarini bilish, ✓ mustaqillik yillarida bunyod	✓ san‘at asarlarini tahlil qilish. ✓ maktabning ichki tartib- qoidalariga rioya

atrofdagilarga mehribon bo‘lish.	mahallasini qadrlash; ✓ ozodalikka rioya qilish, ✓ milliy bayramlarini bilish, ✓ o‘quvchining odob-axloq qoidalarini tushunchaga ega bo‘lish.	etilgan inshootlarni hamda muqaddas qadamjolarini bilish va ularni hurmat qilish. ✓ san’at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish. ✓ ziyorat qilish odobini bilish.	qilish; ✓ yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish. ✓ ziyorat qilish odobiga amal qilish. ✓ milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an’analar, bayramlar, sayillar) bilish,
----------------------------------	--	---	--

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi

- aniq-hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;
- shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda xisob-kitob bilan ish yuritish;
- kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va foydalanish;
- inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
✓ Kun tartibiga rioya qilish. ✓ kundalik	✓ Maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish; ✓ tejamkorlik	✓ mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish; ✓ isrof va tejamkorlikning	✓ bir kunlik xarajatlarini hisoblashni

faoliyatda turli chizma chiza olish va foydalanish; ✓ o‘quv qurollarini saranjom saqlash. ✓ oilasida nechta odam borligi, kim kattayu kim kichikligini bilish;	a rioya qilish. ✓ kundalik rejalarini tuza olish; ✓ kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish.	ma’nosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish. ✓ Ehtiyoji uchun kerak bo‘lgan narsalardan (o‘quv qurollari, kiyim-kechagi.) tejab foydalanish.	bilish; ✓ milliy o‘yinlarimiz ning qanday paydo bo‘lganligini bilish; ✓ texnik a qachon paydo bo‘lganligini bilish.
--	---	--	--

Boshlang‘ich ta’lim fanlaridan namunaviy darslarni baholash mezonlari

	Dars bosqichlari bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlari	Beriladi gan ball
	Dars maqsadi va vazifalarini belgilash usuli. Dars jarayonida tarbiyaviy maqsadlarning amalga oshirilishi va uning dars mavzusi bilan uzviyligi	5 balgacha
	Sinf xonasi, dars jihozlari, dars mavzusiga tegishli ko‘rgazmali qurollarning tayyorligi, psixologik va gigiyenik talablarning bajarilishi	10 balgacha
	Darsda texnik, AKT va ko‘rgazmali qurollar, didaktik materiallardan foydalanish, ularning dars samaradorligini oshirishi	10 balgacha
	Darsda bilim olishga ongli ravishda yondashishini oshiruvchi usullardan foydalanish, darsning qo‘shimcha manbalardan foydalanishga yo‘naltirilishi	10 balgacha

	Darsda o'quvchilar xotirasini mustahkamlashga qaratilgan usullardan foydalanilishi va uning natijasida bilim olish jarayonini mustahkamlash. Darslik bilan dars jarayonida o'quvchilarni ishlatishi.	10 balgacha
	O'tilgan mavzuni tekshirishi va qaytarishining to'g'ri tashkil etilganligi. O'quvchilar bilimini tekshirishda ularning savodxonligiga va nutqiga e'tibor qaratishi.	5 balgacha
	Yangi mavzuni ifodalashda pedagogik nutq madaniyati, ilmiyligi, tizimlilik, tushunarli bo'lishi, mavzuni ochib berishi, o'z fanini bilish darajasi	10 balgacha
	Dars jarayonida metodik va pedagogik usul va uslublardan foydalanish mahorati.	10 balgacha
	Yangi mavzuni mustahkamlash usullarining samaradorligi	2 balgacha
0	O'quvchilarning dars jarayonida mustaqil ishlashlarini tashkil etilishi va bilim olishda faollikning tashkil etilishi	3 balgacha
1	Dars jarayonida belgilangan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga erishish holati	10 balgacha
2	Dars vaqtidan to'g'ri foydalanish va darsni olib borishning optimalligi	5 balgacha
3	Darsni yakunlash usullaridan to'g'ri foydalanish, darsning maqsad va vazifalarini o'quvchilar ongiga yetkazishi	5 balgacha
4	Uy vazifasini berish uslubi. O'quvchilarning bahosini tahlil etib, ifodalab berishi	5 balgacha
	Jami:	100 ball.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa:

O'quvchining kelajakda ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishida poydevorni boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktabda qo'yadi, u go'yoki me'mor,

bezakchi, bolani to'g'ri yo'lga boshlovchi mutaxassisdir. Muallim o'z kasbining ustasi bo'lsa, ta'limning sifat va samaradorligi o'sadi.

Darsni loyihalashda o'qituvchi maqsadni to'g'ri belgilashi, DTSda ko'rsatilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalarni, darsning mazmuni va har bir qismini e'tiborga olishi lozim.

O'zbekistondagi umumta'lim maktablarning 38 foizigina shaharda, 62 foizi esa qishloqlarda joylashgan. Ta'limga bog'liq bo'lmagan omillar, oilalarning yashash tarzidagi tafovutlar ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi maqsadni belgilashda ushbu omillarni ham inobatga olishi muhim.

O'qituvchi tayyorlagan dars ishlanmasida **tayanch va fanga oid kompetensiyalar** ko'rsatiladi. Ta'kidlash joizki, oltita tayanch kompetensiyalar, har bir fanga taalluqli va ular har bir dars ishlanmada aks etishi lozim. Ular quyidagilardan iborat. 1.Kommunikativ kompetensiya. 2.Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. 3. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi. 4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. 5.Milliy va umummilliy kompetensiya. 6.Matematik savodxonlik, fan, texnika, yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Bir soatlik darsda mazkur tayanch kompetensiyalarning bir yoki ikkitasi, dars mavzusidan kelib chiqib kiritiladi. Masalan, ona tili, o'qish, matematika, ingliz tili, tabiatshunoslik kabilarda dars mavzusi, tanlagan pedagogik usul, AKT texnologiyalaridan foydalanishi kabi omillar asosida siz oldindan tayanch kompetensiyalarning aynan qaysilari bugungi darsda shakllantirilishi o'qituvchi tomonidan aniqlab olinadi.

III BOB

TAJRIBA - SINOV ISHLARINI O'TKAZISH VA NATIJALAR TAHLILI

III.1. Pedagogik tajriba – sinov maqsadi va vazifalari

Boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirishda ta'lim maqsadini to'g'ri belgilash orqali erishiladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tatqiqot ishlari ikki bosqichda amalga oshirildi.

1-bosqich (2017-2018-o'quv yili)da tatqiqot mavzusi, maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti, metodlari aniqlanib, mavzu yuzasidan adabiyotlar o'rganildi, kerakli materiallar to'plandi. Passiv amaliyot davrida boshlang'ich sinf o'qituvchilar darslari kuzatildi, so'rovnomalar o'tkazildi.

2-bosqich (2018-2019-o'quv yili) da to'plangan materiallar qayta tahlil qilindi, davlat amaliyoti davrida yakuniy tajriba sinov o'tkazildi. Tajriba va nazorat sinflari tanlanib, biz ishlab chiqqan metodika tajriba sinflarida sinaldi. Tatqiqot mavzusiga doir og'zaki va yozma nazorat variantlari tuzildi. Yozma ish variantlarini tuzishda dasturiy materiallarga rioya qilish, o'quvchilar bilim darajasini hisobga olish, o'quvchilar yosh xususiyatini hisobga olish, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, izchillik, tizimlilik, tamoyillariga rioya qilindi.

Boshlang'ich sinf matematika, ona tili, o'qish, tabiatshunoslik, odobnoma darslarida o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar: matnlarni to'g'ri o'qish, tahlil qilish, o'z nutqida foydalanishi, o'z fikr mulohalarini keng bayon etishi, o'zaro sinfdosh o'rtoqlaari, maktab jamoasi bilan muloqotga kirishishida odob-axloq normalariga rioya etish, matematik bilimlardan kundalik hayotiga foydalan olishiga doir topshiriqlar tanlandi. Va 5 ballik baho tizimi asosida baholandi. Baho mezonlari quyidagi tartibda belgilandi:

- "5" baho quyidagi ishga loyiq deb topildi: Agar o'quvchi variantdagi barcha topshiriqlarni xatosiz bajarsa, izohlasa, fikrini keng bayon etsa, atrofdagilar bilan to'g'ri muloqotga kirisha olsa;

- "4" baho quyidagi ishga loyiq deb topildi: Agar o'quvchi berilgan topshiriqlardan masalan 5 tasidan 4 tasini xatosiz to'liq bajarib, izohlab bergan bo'lsa, yoki 5 sini qisman bajargan bo'lsa;

- "3" baho quyidagi ishga loyiq deb topildi: Agar o'quvchi 3 ta topshiriqni to'liq to'g'ri bajarsa;

- "2" baho quyidagi ishga loyiq deb topildi: Agar o'quvchi 3 ta va undan ortiq topshiriqlarni xato bajargan bo'lsa, ko'p juz'iy xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa.

Passiv amaliyot davrida boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan so'rovnomalar o'tkazdim. O'qituvchilar uchun so'rovnomalar quyidagicha:

- Ta'lim maqsadi deganda nimani tushunasiz?
- Ta'lim maqsadini belgilashda nimalar asos bo'ladi?
- Dars loyihasi qanday yaratiladi?
- Boshlang'ich sinf dars loyihasini yaratishda necha maqsad qo'yiladi?
- Maqsadni belgilashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

O'quvchilar uchun so'rovnoma:

- Bugungi darsda nimalarni o'zlashtirdiz?
- Maktabga nima maqsadda kelasiz?
- O'qish, bilim egallash nima uchun kerak?
- Ko'proq qasysi fanga qiziqasiz va nima uchun?

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari

Davlat amaliyotini Buxoro shahridagi 23-son umumta'lim maktabining 1-"B" sinfida o'tkazdim. Tatqiqot ishlari yuzasidan olingan ko'rsatma va tavsiyalarni shu sinfda sinadim. Bu sinfni tajriba sinfi sifatida tanladim. Bu sinfda 35-nafar o'quvchi bor. Nazorat sinfi sifatida 2-"V" sinfini tanladim. Bu sinfda esa 32 nafar o'quvchi bor. Ikki oy davomida tajriba sinfida muloqotchanlik ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirishga mo'ljallangan noan'anaviy darslarni tashkil etdim.

O'qish, ona tili, matematika darslarida, qolaversa tarbiyaviy soatlarda o'quvchilarning kompetensiyalarni samarali o'zlashtirishida maqsadni to'g'ri

belgilashning ta'sirini kuzatdim. Darsning maqsadiga mos tarzda o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga "Aqliy hujum", "BBB", "Klaster", "Zakovatli zukko", "Ikki qismlik kundalik", "Esse" kabi metodlardan foydalandim. O'quvchilar qiziqib, mavzuni tushunib olishdi va o'quv topshiriqlarini qiynalmay mustaqil bajarishdi. Tajriba sinov ishlarini yakuni sifatida tajriba hamda nazorat sinflarida topshiriqlar berilib, natijasi olindi.

Quyidagi jadvalda o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish berilgan

№1

№	Sinflar	O'quvchi soni	Bilim darajasi			
			"5"	"4"	"3"	"2"
1.	2-"G" - nazorat sinfi	35	4 ta	13 ta	14 ta	4 ta
2.	2-"D" - sinov-tajriba sinfi	32	8 ta	17 ta	7 ta	0 ta

Har ikki sinf o'quvchilariga bir xil savollar berildi.

O'tkazilgan tajriba-sinov natijalaridan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf darslari samaradorligini oshirishda maqsadni to'g'ri belgilanishi muhim omillardan biri ekan. Boshlang'ich sinf darslarida maqsad to'g'ri belgilansa, o'quvchilar tomonidan kompetensilarni o'zlashtirish darajasini yuqori bo'lishiga olib keladi.

Uchinchi bob yuzasidan xulosa:

Globalashuv jarayonida ta'lim maqsadi shaxsni o'z milliy an'ana va qadriyatlarning sohibi va representi bo'lgan dunyoning faol fuqarosini shakllantirishga qaratilishi lozim. Bunda ta'lim nafaqat shaxs rivojining darajasini, balki butun jamiyatni umumiylikda, uning barcha ijtimoiy institut va tizimlarining darajasini ham belgilab berishi lozim.

UMUMIY XULOSALAR

Mavjud adabiyotlar hamda ijtimoiy-pedagogik muhit tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'limning bosh maqsadini belgilash muhim ijtimoiy, siyosiy, didaktik hodisa bo'lib, u davlat va jamiyatning ta'lim oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtmasini o'zida to'la ifodalaydi.

Ta'limning davlat tomonidan ijtimoiy buyurtma darajasida belgilab berilgan umumiy maqsadi bilan xususiy maqsadi orasida mutanosiblik ta'minlanishi lozim. Bunday mutanosiblikni ta'minlash didaktikaning o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolaridan biri ekanligi mavjud ilmiy-pedagogik manbalar, o'quv adabiyotlarini o'rganish natijasida yaqqol namoyon bo'ldi.

Ta'limning umumiy maqsadi barcha davrlarda ta'limning xususiy maqsadlari bilan uyg'un tarzda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy taraqqiyotning in'ikosi sifatida dinamik tarzda rivojlanib kelgan.

Boshlang'ich sinf darslari alohida, mustaqil bilim sohasi sifatida o'qitilganda uning oldida muayyan xususiy maqsad qo'yilishi zarur. Bu maqsad ta'limning umumiy maqsadiga mos kelishi kerak.

Ta'limning umumiy maqsadi bilan xususiy maqsadlari orasidagi mutanosiblikni ta'minlash natijasida o'quv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishning qulay pedagogik imkoniyatlari vujudga kelishini tajribalar yaqqol ko'rsatdi.

Ta'limning umumiy maqsadi bilan o'quv predmetlarining xususiy maqsadlari, mazmuni, o'qitish shakllari, vositalari, usul va metodlari o'zaro mutanosib bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning umumiy maqsadi bilan o'quv predmetlarining xususiy maqsadlari, mazmuni, o'qitish shakllari, vositalari, usul va metodlari orasidagi uyg'unlikni ta'minlashning pedagogik omillari, didaktik xususiyatlari va tamoyillariga tayanish talab etiladi.

Ta'limning umumiy maqsadiga mos tarzda loyihalashtirilgan o'quv predmeti mazmunini tajriba-sinov jarayoniga tatbiq etish natijalari bu tizimning samaradorlik darajasini aniq ko'rsatdi.

Yuqoridagi xulosalar asosida quyidagi tavsiyalarni bayon qilamiz:

1. Har bir o'quv predmetining maqsadi, mazmuni, o'qitish vositalari, shakllari, usul va metodlari ta'limning umumiy maqsadiga mos tarzda loyihalashtirilishiga erishish.
2. O'quv dasturlari, darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarni ta'limning umumiy va xususiy maqsadlariga mos kelishini ta'minlash.
3. O'qituvchilarning ta'limiy topshiriqlarni ta'limning umumiy va xususiy maqsadlari, o'quv predmetining mazmuni, o'qitish shakllari, vositalari, usul va metodlariga mos tarzda tanlashlariga erishish.
4. O'quv jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar ta'limning umumiy va xususiy maqsadlariga mos kelishini pedagogik jihatdan ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2003. – 46 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.- Toshkent: Sharq, 1997. - B. 31-60.
3. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2909-sonli Qarori
6. 2017 yil 30 sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ 3304-sonli Qarori
7. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariiga bag'ishlangan majlisdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.-Toshkent:O'zbekiston, 20017.-104 bet.
8. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016.-56 bet.
9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.
10. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-Toshkent:O'zbekiston,2017.-48 bet.

11. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.-Toshkent:O‘zbekiston, 2017.
12. 3-sinf «Ona tili» darsligi (S.Fuzailov, M.Xudoyberganova, Sh.Yo‘ldosheva. T., «O‘qituvchi» NMIU, 2018
13. Abdullayeva Q.A., Safarova R.F. va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. // Boshlang‘ich ta’lim j. –T.: 1998. -№6. – B. 12-18.
14. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi.-Toshkent: fan va axborot texnologiyalari, 2017.-178 bet.
15. Atrofimizdagi olam. 2-sinf (2018, P.G‘ulomov, Sh.Mirzahmatova). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi O‘shkent – 2018
16. Elbek. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi H.Uzoqov). – T.: Sharq, 1999. – 285 b.
17. Farberman B. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2000. – 46 b.
18. G‘oziyev E. Psixologiya: Yosh davrlari. Psixologiyasi. –T.: 1994.– 224 b.
19. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R.Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 450 b.
20. Ibragimov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllanti rishning didaktik asoslari: Ped.fan.dok.diss. Avtoreferati.T., 2005. 44 b.
21. Inog‘omova S. Mantiqiy fikrlash //Boshlang‘ich ta’lim.T.,2000.№2. B.20-21.
22. Mahmudov M.H. Ta’limni didaktik loyihalashning nazariy asoslari. Ped. fan. Doktorlik. Diss. –Toshkent, 2003. 342b.
23. Matematika. 2-sinf (2018, N.Abdurahmonova, L.O‘rinboyeva). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi O‘shkent – 2018
24. Nasriddinova M. Zamonaviy pedagogik texnologiya asosidagi dars //Xalq ta’limi.-Toshkent, 2006.-№ 2-B 71-72.
25. O‘zbek pedantalogiyasi. I jild. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.
26. O‘zbek pedantalogiyasi. II jild. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 480 b.

27. O‘zbek SE. T. X.– T.: O‘zbek sov. ensiklopediyasi Bosh red.,1975. – 640 b.
28. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. T.I. – M.: Rus tili, 1981. – 462 b.
29. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 5-jild. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 704 bet.
30. Odobnoma. 2-sinf (2018, O.Hasanboyeva, M.Inoyatov). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Òoshkent – 2018
31. Qoshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. 3 tomlik. T.I. (Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov). – T.: O‘zbekiston FA, 1959.
32. Roziqov O. O‘zbek maktablarining boshlang‘ich sinflarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari. Ped. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T.: 1967.– 32 b.
33. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
34. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudova M., Adizov B. Didaktika. – T.: Fan, 1997. – 256 b.
35. Ruvinskiy A.R. «Tarbiyaviy ish metodikasi» T. «O‘qituvchi» 1991.
36. S. Ochil. Mustaqillik mafkurasi va tarbiya asoslari. T. 1954. 23 bet.
37. Safo Ochil. "Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari". Toshkent, "O‘qituvchi" 1995.-254 b.
38. Saidnazarova F., Saidnazarov I., «Tarbiya –odob va oqibat» T. O‘zbekiston 1999
39. Still J., Meredis K., Templ Ch. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari. 1-qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston – Ochiq jamiyat instituti, 2000. – 46 b.
40. Suvonov O.va boshqalar. "Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash davr taqozosi". "Xalq ta’limi", 2004 yil, № 5.
41. Tabiatshunoslik. 3-sinf (2010, Akbar Bahromov) Tabiatshunoslik. 4-sinf (2018, Akbar Bahromov)
42. Texnologiya. 2-sinf (2018, X.Sanakulov, D.Xodiyeva). Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Òoshkent – 2018

43. Yoʻldoshev J.Gʻ. "Pedagogik texnologiya asoslari (xalq taʼlimi xodimlari uchun)". Toshkent: Oʻqituvchi, 2004. - 102 b

44. Yusuf xos Hojib. Qutadgʻu bilig (Nashrga tayyorlovchi Q. Karimov). 2-nashri. – T.: Fan, 1972. – 964 b.

ILOVA

Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars ishlanmalariga qo'yiladigan talablar

1. Dars maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) o'quv materialiga mos ravishda tanlangan bo'lishi;
2. O'quv materialini o'zlashtirishning murakkablik darajasiga qarab dars turi, shakli va samarali metodlarining tanlanishi va ularning ko'rsatilishi;
3. Mavzuga mos o'quv vositalarining tanlanishi, ulardan samarali foydalanish usullarining ko'rsatilishi;
4. Didaktik materiallarning o'quvchilar yoshiga mos tanlanishi va ulardan qaysi bosqichda qanday tartibda foylanishning ko'rsatilishi;
5. O'quvchilar bilimlarini sinash maqsadida yosh xususiyatlarini inobatga olib, DTSga mos test savollarining tuzilganligi, ulardan foydalanish samaradorligining namoyishi;
6. Darsda qo'llaniladigan metodlarning aniq va to'liq yoritilishi;
7. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatining ko'rsatilishi;
8. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni namoyish qilinganligi;
9. O'quv materialining to'liq bayon etilganligi;
10. Zamonaviy ta'lim strategiyalariga muvofiq dars bosqichlarining muntazam algoritmga ega ekanligi;
11. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning namoyish etilganligi;
12. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning aniq ko'rsatilishi;
13. Mavzu asosida belgilangan kompetensiyalarni shakllantirishga erishish darajasi
14. Natijaviylikning ta'minlanganligi;
15. Didaktik talablarga rioya etilganligi;

16. Yuqoridagi talablarga muvofiq tayyorlangan IPT asosidagi dars ishlanmasi kamida 8 bet bo'lishi lozim.

MUNDARIJA

	KIRISH	
I-BOB.	TA'LIM MAQSADINI BELGILASHNING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI	
I.1.	Ta'lim maqsadini belgilashning didaktik asoslarini aniqlash muammo sifatida	
I.2.	Ta'lim maqsadining tarixiy taraqqiyot bosqichlari	
II BOB.	BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA TA'LIM MAQSADLARI BILAN UNING MAZMUNI ORASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH METODIKASI	
II.1.	Boshlang'ich sinf darslarida ta'lim maqsadi bilan uning mazmuni, vosita va usullari mutanosibligini ta'minlashning didaktik-psixologik asoslari	
II.2.	Boshlang'ich ta'lim mazmuniga muvofiq ta'lim maqsadlarini belgilash metodikasi	
III BOB.	TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI	
III.1.	Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish	
III.2.	Tajriba-sinov ishlari natijalari	
	UMUMIY XULOSALAR	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	
	ILOVA	